

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Jung'or xonligi va uning inqirozi

Bajardi: “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
ta’lim yo’nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Askarov Mirzohid

(imzo)

Ilmiy rahbar: “Markaziy Osiyo xalqlari
tarixi” kafedrası katta o’qituvchisi
Mamarahimova B.I.

(imzo)

TOSHKENT-2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Jahon siyosati va tarix”
fakulteti dekani
s.f.n., I.N.Bekmuratov

“ ” _____ 20__ yil

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi ”
kafedrası mudiri
t.f.n., dots. Sh.J.Saidov

“ ” _____ 20__ yil

Mundarija:

Kirish	4-10 bet
1-BOB. <u>Jung’or xonligining siyosiy tarixi</u>	11-33 bet
1.1. Jung’or xonligining tashkil topishi va taraqqiyoti	11-17 bet
1.2. Jung’or xonligining inqirozi	18-33 bet
2-BOB. <u>Jung’or xonligining boshqaruv tizimi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti</u>	34-50 bet
2.1. Jung’or xonligining boshqaruv tizimi va mamlakatning ichki siyosati	34-43 bet
2.2. Jung’or xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti	44-50 bet
Xulosa	50-53 bet
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati	54-59 bet
Ilovalar	60-62 bet

KIRISH

Ishning dolzarbligi. Olimlar oldiga Jung'or xonligini o'rganmay turib XVII-XVIII asrlardagi Rossiya, Sin imperiyasi, Qozoq Juzlari, Xalxa, Tibet, Kichik Buxoro (Sharqiy Turkiston), Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib bo' masligi masalasi qo'yildi. XX asrning so'nggi choragida bu dolzarb masalaga aylandi va Rossiyada ham, Qozog'istonda ham, Mo'g'ulistonda ham buni o'rganishga kirishildi. Shundan so'ng arxiv hujjatlari qayta ko'tarildi, manbalar bilan ishlash boshlandi, natijada ko'plab asarlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, maqolalar bosib chiqarildi va ommaga taqdim etildi.

Hozirgi kunga kelib Prezidentimiz I.A.Karimovning **“Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”**¹ degan so'zlariga tayanib, Respublikamizda Jung'or xonligining mamlakatimizga, xususan, Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklari, qoraqalpoqlarga va boshqa qardosh xalqlarga bo'lgan siyosiy, madaniy, ijtimoiy ta'sirini chuqurroq o'rganish, tatqiq etish va xalqqa taqdim etish dolzarb masalaga aylandi. Shu o'rinda yana Prezidentimiz I.A.Karimovning: “Ilmga, ijodga, kashf etishga intilish – bu oliyjanob intilishdir... chunki mamlakatning iqtisodiy qudratini, uning ertangi kunini, boringki, taqdirini ham pirovard natijada aql-zakovat, ma'naviyat hal qiladi”.²

Shu jihatdan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrasi tomonidan Markaziy Osiyo mintaqisiga kiruvchi davlatlar tarixini o'rganish masalasi keyingi yillarda dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Shu maqsadda, “Jung'or xonligi va uning inqirozi” mavzusi mustaqil tadqiq etish, izlanish, qiyoslash va yakuniy xulosalar chiqarish uchun bitiruv malakaviy ishi sifatida belgilandi. Mazkur holat Jung'or xonligining bizning mamlakatimiz bilan bo'lgan aloqalari naqadar muhimligi va dolzarbligidan dalolat beradi. Quyida o'z ishimizda buning isbotini keltirib beramiz.

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q// Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T-7. Toshkent 1999. 135 b.

² Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. - Toshkent, O'zbekiston, 1996. T.4. – 88 b.

Ishning maqsad va vazifalari. Jung'or xonligini o'rganishdan ko'zlangan asosiy maqsad XVII asr ikkinchi choragi va XVIII asr 60 yillarida yashagan bu davlatni qo'shni davlatlar, Sin imperiyasi, Xalxa, Tibet, Rossiya, Kichik Buxoro (Sharqiy Turkiston), Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklari, qozoq Juzlari bilan aloqalari, ularning etno-madaniy, ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri, ular o'rtasidagi diplomatik va savdo aloqalari, hukmdorlar orasidagi munosabatlar va yozishmalar, bu vaqtdagi siyosiy ahvol, qanday madaniyatlarni qabul qilgan va tarqatgan, shu davlatlarda yashaydigan hayotida Jung'or xonligi qanday rol o'ynaganligini aniqlash va ochub berishdan iboratdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi bir necha vazifalarni amalga oshirish kerak:

- *Birinchidan*, Jung'or xonligi to'g'risida ma'lumotlar to'plash va qay darajada o'rganilganligini aniqlash;
- *Ikkinchidan*, qaysi tadqiqotchilar bu davlat tarixiga oid arxivlar bilan bevosita ishlab asarlar va monografiyalar yaratgani aniqlash va bu asarlar bilan to'liq tanishib chiqish;
- *Uchinchidan*, Jung'or xonligi davriga oid asosiy manbalardan bu davlatga tegishli ma'lumotlarni ajratib olish va to'plash;
- *To'rtinchidan*, chet el olimlari asarlari, maqolalari va fikrlarini ko'rib chiqish va inobatga olish;
- *Beshinchidan*, to'plangan barcha ma'lumotlarni taqqoslash, qiyoslash, va ular orasidan eng aniq, ob'yektiv yondoshilgan va manbaga tayangan ravishda to'g'ri xulosalar berish;
- *Oltinchidan*, olingan barcha ma'lumotlarni tartibga solib, bir yakunlangan ish holitiga keltirish. Bu olti vazifa to'liq bajarilganda, biz o'z maqsadimizga erishgan bo'lamiz;

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Jung'or (oyrat) xonligini o'rganishda juda ko'plab ishlar, maqolalar, monografiyalar yozilgan. Ular orasida I.Ya.

Zlatkin³, V.A.Moiseev⁴, Edilxanova S.A.⁵, Gurevich B.P.⁶, Galushkin Sanji (Xoyt Sanji) (Обзор ойратской истории. Глава 2. Часть 2. Монгольский период. Выделение ойратского этнического и политического союза и темный период (конец XIV-XVI века)⁷ning va boshqalarning ishlarida ko'rishimiz va ma'lumot olishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki Jung'or (oyrat) xonligi tarixi ancha chuqur o'rganilgan.

Lekin shunga qaramay yozilgan ba'zi ishlarda biz noaniqliklar borligini uchratishimiz mumkin. Talabalar bu noto'g'ri ma'lumotlardan foydalanib referatlar, mustaqil ishlar, kurs ishlari yozishadi. Bu narsani isbotlash maqsadida yozilgan akademik ishdan quyidagi misolni keltiraman. "Jung'orlar 7 qismga bo'linib 70 ming kishilik qo'shin bilan hujumga o'tishdi. Sevan-Rabdanning o'g'li Galdan-Seren 10 minglik qo'shin bilan Balxash va Qoratovga qarab yo'l oldi. Xuntayjining kichik ukasi Kulan-Batur Oltoy va Ko'ktol daryosiga qarab yurdi. Xuntayjining nabirasi Amursani qo'shinlari Nur daryosi havzasiga qarab yo'l olishdi. Galdan-Serenning o'g'li Sevan-Dorji Chilik daryosi tomon harakat qildi. Galdan-Serenning boshqa o'g'li Lama-Dorji Issiqko'lga arab yurdi. No'yon Doda-Dorjim Chu daryosiga tomon harakatlandi. Sevan-Rabdanning o'zi Ilidan kechib o'tib Yettisuvga qarab yurdi. Umumiy yurishni Sevan-Rabdanning akasi Shona-Daba amalga oshirdi⁸".

Bu yuqorida keltirilgan parchada quyidagi noaniqliklarga yo'l qo'yilgan: 1723 yilga jungor qo'shinlarining yurishiga boshchlik qilgan Shon-Daba Sevan-Rabdanning akasi emas balki kichik o'gli edi; 3-chi qismni boshqargan Sevan-Rabdanning nevarasi Amursan bu vaqtda endigina 1 yoshga to'lgan edi; 4-chi va

³ История Джунгарского ханства. М.: Наука, 1983

⁴ Джунгарское ханство и казахи (XVII-XVIII вв.). Алма-Ата: Гылым, 1991

⁵ Казахско-джунгарские взаимоотношения в XVII-XVIII веках (Некоторые историографические аспекты проблемы). Алматы: Дайк-Пресс, 2005.

⁶ Международные отношения в Центральной Азии в XVII-первой половине XIX в. М.: Наука, 1979.

⁷ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер".

⁸ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер". См. также История Казахстана (с древнейших времен до наших дней) в 5-ти томах. Том 3. Казахстан в Новое время. Алматы: Атамұра, 2000.

5-chi tumanlarni boshqargan Galdan-Serenning ikki o'g'li Sevan-Dorji va Lama-Dorji bu vaqtda hali tug'ilmagan edi⁹(!).

Bu keltirilgan noaniqlik “История Казахстана ” (3 том)da bo'lib, muallif ma'lumotni xalqning afsonalaridan qo'shgan bo'lishi mumkin, chunku bu 1723 yilgi 7 yo'nalish bo'ylab hujum to'g'risidagi ma'lumotlar Levshin A.I. (Описание киргиз-казахских или киргиз-кайсацких орд и степей. Алматы: Санат, 1996.) da ham Tanishpayev M.(История казахского народа. Алматы: Санат, 1998.) da ham keltirilmagan. To'g'ri xalqdan olingan ma'lumotlarni ham hisobga olish kerak, lekin ular aniq manba sifatida xizmat qila olmaydi. Shuning uchun ma'lumot kiritilayotganda aniq bir manbaga tayanish lozim.

Biz Jung'or xonligi tarixini ochib berish uchun ishonarli manba sifatida aynan shu davrda, ya'ni XVII-XVIII asrlarda yashab o'tgan tarixshunoslar asarlaridan, ibodatxonalarda yozib qoldirilgan qaydnomalardan, hukmdorlar orasida bo'lib o'tgan yozishmalardan, maktublardan, elchilik aloqalaridan yozib olingan ma'lumotlardan, turli xil shartnoma hujjatlaridan foydalanishimiz mumkin.

Jung'or xonligi asosan Rossiya, Sin imperiyasi va Qozoq Juzlari bilan aloqa qilgani tufayli, u haqidagi ma'lumotlarni rus va xitoy manbalarida ko'plab uchratish mumkin.

Rus manbalaridan Jung'orlar haqida ilk ma'lumotlarni bergan qo'lyozma “**Stroganovlar qo'lyozma**” si hissoblanib, unda Rus shohi Ivan IV ning buyrug'i keltirilgan va unda jung'olar ham tilga olingan. Oyratlar haqidagi ma'lumotlar yana “**Esipovlar qo'lyozmasi**” va “**Remezovskiy qo'lyozmasi**” da ham uchraydi. Bu qo'lyozmalar sibirliklarniki hissoblanib, XVI asr oxiriga oiddir.

Oyratlar haqida Mahmud Chorosning (yoki Shoros) “**Xronika**” asarida ham ko'plab ma'lumotlarni uchatish mumkin.

Gaban-Sharabning “**Сказания**” va Batur-Ubashi-Tyumenning “**Сказания**” sida ham Xara-Xulaning faoliyati haqida va shu davr haqida keng ma'lumotlar yozib qoldirilgan.

⁹ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер".

Oyratlarning XVII asrdagi ahvoli haqida shu hududdan o'tayotgan, 1613 yil Mixail Fedorovich tomonidan Shox Abbosga yuborilgan elchi Mixail Tixonov ham yozib o'tgan.

Jung'or xonligini XVII asr oxiri – XVIII asr boshidagi tarixini o'rganishdagi bizning asosiy manbamiz bu ЦГАДА (Центральный государственный архив древни) va АВПР (Архив внешней политики России) fondlaridagi materiallardir. Bundan tashqari «Киргиз-кайсацкие дела» va «Калмыцкие дела» fondlarida ham oyratlar haqida qimmatli ma'lumotlar saqlanadi. Bu materiallarda katta miqdorda Jung'or xonligining tashqi siyosatidagi faktlar keltirilib, ichki munosabatlar haqida birmuncha kamroq ma'lumotlar berilgan. Bu materiallar haqiqiy nusxalardan iborat bo'lib, rus elchilari **Savva Vladislavovich Raguzinskiy, Lorenca Langa, Maksim Etigerov, Leontiy Ugrimov** va boshqalarnig Xitoy yoki Jung'oriyaga borganda yozib olgan ma'lumotlaridandir.

Jung'or xonligi to'g'risida Pyotr I ning elchisi, 1714 yilda safarga chiqqan Buhgol's ham juda qimmatli ma'lumotlar to'plagan.

Rossiya va Jung'or xoniligi o'rtasidagi muhim elchilik aloqasi 1722-1723 yillardagi **I.Unkovskiy** elchilik missiyasi edi. Uning to'plagan materiallarini keyinchalik N.Veselovskiy nashr ettirgan.

Xitoylik olimlardan **E.Xenishni** alohida ta'kidlanadi, u 1755 yildagi sin-jung'or urushi haqida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan.

Undan tashqari Sibir gubernatori general Kroft ham Jung'orlar, Sin imperiyasi va Rossiya o'rtasidagi aloqalarda faol qatnashgan va o'rtada tuzilgan shartnomalarni Rossiyaga taqdim etgan.

1752 yilda Peterburgdan **I.Neplyuyev va Tevkelevga** maxsus qaror bilan maktub yuborilgan. Unga ko'ra ular Amursan bilan muzokaralar olib borishi kerak edi. I.Neplyuyev ko'plab ma'lumotlarni to'plab, biografik asar yozib qoldirgan.

XIX asrda ham ko'pgina olimlar oyratlar tarixini o'rganib asarlar yaratib ketishgan. Ulardan: **Позднеев А.М.** К истории зюнгорских калмыков. СПб., 1887. **Бичурин Н.Я. (Иакинф)** Историческое обозрение ойратов или

калмыков с 15 столетия до настоящего времени. СПб., 1834.¹⁰ **Вельяминов-Зернов В.В.** Исторические известия о киргиз-кайсаках и сношениях России с Среднею Азию со времени кончины Абул-Хайр хана (1748-1765). Т.1-2. Уфа. 1853-1855. **Витевский В.Н., И.И.Неплюев** Оренбургский край в прежнем его составе до 1758 г. Вып. 1-4. Казань. 1889-1895.

Ishning ob'yekti va predmeti. Ishning ob'yekti bolib XVII asrning ikkinchi choragidan XVIII asrning 60 – yillarigacha mavjud bo'lgan Jung'or xonligi davlati xizmat qiladi. Jung'or xonligining inqirozi, uning sabab va oqibatlari uning predmeti hisoblanadi.

Ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. I.Ya.Zlatkin, V.A.Moiseev, V.Chernenko, Xoyt Sanji va ko'plab boshqa yetakchi olimlarning asarlarini o'rganar ekanman, ba'zi bir manbalar talabga javob bermasligi, ba'zi ma'lumotlari noaniqligi va mantiqqa to'g'ri kelmasligini aniqladim. Xusussan, “История Казахстана” 5 tomli asarida, A.Pozdneev, K.Palmovoy va N.Veselovskiyni asarlarida ham uchratamiz. Masalan: K.Palmov Sevan-Rabdanni Sin imperiyasini yonini oluvchi deb, N.Veselovskiy esa uni nafaqat butun Mug'uliyani balki butun Sin imperiyasini ham bosib olmoqchiligini yozib o'tgan, bu esa manbalarga to'g'ri kelmaydi. Manbalarga tayangan holda shuni aytishim mumkinki, Sevan-Rabdan hech qachon Sin imperiyasiga yon bosmagan, aksincha undan mustaqil bo'lishga intilgan hamda uning maqsadi Sin imperiyasini bosib olish emas, Jung'oriyani Sin qaramligidan chiqarib uni ozod qilish edi.

Ko'p asarlarda bu vaqtda Xitoy degan termini ham ishlatilganini uchratdim. Bu termin mantiqan noto'g'ri, chunki bu davrdagi Xitoy bilan hozirgi Xitoy farqlanadi. Bu davrga nisbatan **Sin imperiyasi** terminini ishlatsak ham ilmiy jihatdan, ham mantiqan to'g'ri bo'lardi.

Bu kabi misollar juda ko'p, ya'ni ba'zi olimlar ishonchsiz manbalarga, xalqning o'zidan eshitilgan so'zlar asosida ish yuritishgan, bu narsa har doim ham tarixiy faktlarga, tarixiy sanalarga to'g'ri kelavermaydi. Biz aynan o'sha vaqtda

¹⁰ Историческое обозрение ойратов или калмыков с XV века до настоящего времени. — Журн. мин. внутр. дел, 1833, ч. VIII, № 3, отд. III, Стр.. 283—303; № 4, отд. III, Стр.. 371—413; ч. IX, № 5, отд. III, Стр.. 36—111. Отдельные статьи, отличающиеся от сводной работы того же названия, опубликованной в следующем году.

yoʻzilgan yilnomalar, hukmdorlar orasidagi yoʻzishmalar, elchilarning keltirgan maʼlumotlari, ibodatxonalarda yoʻzilgan qaydnomalarga murojat qilsak ishimiz ham mazmunan, ham mantiqan, ham tarixiy jihatdan aniq va ishonarli boʻladi. Quyida oʻz shimda ehtimol shunday aniqlikka erishishgandirman.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, 4 qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyhatidan va ilovadan tuzilgan.

1-BOB. Jung'or xonligining siyosiy tarixi

1.1. Jung'or xonligining tashkil topishi va taraqqiyoti

Jung'or¹¹ **xonligi** – oyrat¹²lar (qalmiq¹³lar) ning davlati hissoblanib, XVII ikkinchi choragi - XVIII ikkinchi yarmi boshlarigacha mavjud bo'lib, Balxash ko'lidan Irtish va Tyan-Shangacha cho'zilgan hududda joylashgan kuchli davlatdir.

Pyotr I ning 1720-1725 yillarda asirga tushgan shved ofitserlari tomonidan tuzilgan, Rusni o'rab turgan davlatlardan biri Kalmikiya, ya'ni Jung'or xonligi bo'lib, u yashil rangda ifodalangan¹⁴.

Poytaxti Kuldja shaxri. Xonlik hududida qalmiq yoki oyrat tilida so'zlashishgan. Dini buddizm va lamayizm. Aholisi asosan oyratlar (qalmiqlar), uyg'urlar (asosan Sharqiy Turkistonda), oltoyliklar, shorlar, tuvinlar.

Hukmdor “xun taydji¹⁵” (kontayshi¹⁶) deb nomlangan va qalmiqcha(oyratcha) dan tarjima qilinganda “Buyuk hukmdor” ma'nosini bergan.

Oyratlar haqida rus manbalaridagi eng qadimgi ma'lumotlar Stroganov qo'lyozmasida¹⁷ uchratishimiz mumkin. Bunga ko'ra shox Ivan IV 1574 yil 30 mayda Stroganovlarga buyruq yuborgan, unga ko'ra: “Qachonki u qasrga Yakov

¹¹ Чжунгария от монгольского слова Чжун-гар по выговору Южных и Цзун-гар по произношению Северных Монголов, в переводе значит: Восточная сторона. Бичурин Н.Я. (Иакинф) Историческое обозрение ойратов или калмыков с 15 столетия до настоящего времени. СПб.,1834(электронная версия).

¹² Ойрат есть Монгольское слово; в переводе: союзный, ближний, союзник. Бичурин Н.Я. (Иакинф) Историческое обозрение ойратов или калмыков с 15 столетия до настоящего времени. СПб.,1834(электронная версия).

¹³ “Agar “qalmoq” deb aysak to'g'ri bo'ladi, bu nomni ularga Turkistonliklar bergan”- Бичурин Н.Я. (Иакинф) Историческое обозрение ойратов или калмыков с 15 столетия до настоящего времени. СПб.,1834(электронная версия). Еще Б.Б.Бартольд. Сочинения том V. М: Наука, 1968. Стр.. 538. «Калмыки это тюркское название одной из монгольских народностей, самоназвание которой - ойраты»

¹⁴ “Джунгарское ханство” Материал из Википедии — свободной энциклопедии

¹⁵ Титул китайского происхождения, дававшийся в XIII – XIV вв. только царевичам из рода Чингисхана. Позднее, в XVII в., тайджи назывались прилепившиеся сайды (ср. русское «дворянин»). Алтан Тобчи («Золотые сказания»), Лубсан Даздан. Перевод с монгольского, введение, комментарий и приложения Н.П.Шастиной. М.:Наука,1973.

¹⁶ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука,1983. Глава 2, Образование Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

¹⁷ Там же. Еще самое раннее упоминание о калмыках (калмак, калмок, колмак, калимак, халимак, хальмг) встречается в Страновской летописи, излагающей указ Ивана IV от 30 мая 1574 г., на имя Строгановых, которым повелевалось: "А когда станут в те крепости приходить к Якову и Григорию торговые люди бухарцы и калмыки и казанские орды и иных земель с какими товары, и у них торговати повольно беспошлинно" (Сибирские летописи, 1907)

va Grigoriy oldiga buxoroliklar va qalmiq savdogarlari kela boshlaganda ular bilan bojsiz savdo qilinsin”, - deb yozilgan buyruq yuborilgan.

Boshqa qo'lyozmada, Esipov yozuvlarida ham: “Tura, Tobol, Irtish, Ob daryolari bo'yida xalqlar: Tatarlar, Qalmiqlar, Mugallar yashaydi”, - degan ma'lumotlar uchraydi.

Jung'or xonligining barcha to'qqizta hukmdori ham “choros” (цорос) xonadoni(qabilasi)dan kelib chiqqan: sakkiztasi- ota tomondan; bittasi(Amursan)-ona tomondan. Bu xonadon o'zi qayerdan kelib chiqqan? Xalqning aytishi bo'yicha “choros”¹⁸ qabilasi kelib chiqishi to'g'risida bir necha taxminlar bor ekan:

1. Urug' asoschisi daraxtga osib qo'yilgan belanchakda topilgan; uchi choynakning uchiga o'xshash (chorgo/tsorgo) daraxt shoxidan go'dakning og'ziga yomg'ir suvi tomardi¹⁹;
2. Topilgan bolaga Choros deb ism berishdi, chunki uning oldida chashka (chara/choro) turgandi;
3. Choros (tsoros)lar daraxt kovagidan topilgan boladan tarqalgan. Daraxt chekadigan trubkaga o'xshagan “tsorgo”;
4. “choros”²⁰ etnonimi Enisey qirg'izlarida “bahodir” ma'nosiga to'g'ri kelgan²¹.

¹⁸ От Хутхай-Дайю (Хутхай-Тайю, Хутхай-Тафу), упоминая при этом, что он принадлежал роду чорос (цорос) (этноним начинает упоминаться в источниках с конца XIV в.), Авляев (1994) выводит родословную Махмуда, Тогона, Эсена и последующих за ними зюнгарских ханов. Он предполагает, что этот этноним восходит к киргизам Енисея (киргизский термин "чоро" - богатыри, витязи): "Впоследствии это - ханский род племени "зюнгар" и "дербет", обойраченный, среди коренных ойратов конца XIV - XVI вв.". Имеются и другие версии, все они легендарного характера и приводятся в работе Митирова (1998). Он пишет, что по одной из версий легенды, записанной Б. Я. Владимирцовым в 1908 г. у дэрбэтов Кобдо этот этноним происходит от названия "цорбогор аяга" - закрытой чашки с носиком, из которой питался ребенок (сын молодого охотника и небесной девы), прародитель рода цорос. По версии эмчи Габан-Шараба, автора "Сказания об ойратах" это имя ребенка, от которого произошел род цорос, названного так, потому что дерево под которым он был найден напоминал винокурную трубу (цорh - совр. калм., цорго - совр. халх. - Г.С.). Та же легенда излагается Б. Бат-Оршихом (<http://tsahimortoo.freeyellow.com/journal13/20020205.html>), он же уточняет, что этноним цоргос (цорос) стал названием аймака, принадлежавшего нойону, найденному в детстве под деревом и охранявшимся в тот момент птицей. По другой версии (устная информация синьцзянского торгута рода цорос "цорос арвн" Минган Нарса, зафиксирована автором в мае 2002 г.) это имя происходило от цороо (цорго) - названия трубки из которой младенец - будущий хан, найденный в дупле, питался соком дерева, птицей же была сова (ууль шову(н)).

¹⁹ Очир А. О происхождении этнических названий монголов, боржигин, хатагин, элжигин и цорос // Монголо-бурятские этнонимы. - Улан-Удэ, 1996. - С.3-8.

Oyrat qabilalari (torgoutlar²², derbetlar, chorostrar, xoshoutlar²³, xoytlar) 1204 yilda Chingizxon davlati tarkibiga kiritilgan va ular nayman hamda kereitlar

²⁰ Среди научных (лингвистических) гипотез о происхождении этнонима чорос (цорос) наибольший интерес вызывает мнение Г.И. Рамстедта, считавшего, что он происходит от киргизского этнонима чоро. Мы уже отмечали, что этнонимы чоро и чорос могли образоваться от древнетюркского политического термина чор/чур (титула, звания главы племени), путем добавления аффикса множественного числа ос/ас. Так, в исторических источниках упоминаются, например, что во главе пяти племен восточной, правой части (дулу) Западно-тюркского каганата стояли пять великих чоров. А в чуть позднее возникшем Восточно-тюркском каганате предводителями племен западной, левой части (тардуш) были шесть чуров. В дальнейшем эта система была перенята правителями Уйгурского каганата. Важно то, что чоры (чурь) стояли во главе племен, занимавших территории южного Алтая и северной Джунгарии. В рунических эпитафиях VIII-IX вв. имеются имена некоторых тюркских и уйгурских аристократов - чуров (чоров): Ынанчи-чур, Кюль-чур, Моюн-чур (Баян-чор), Кутлуг-чор-тегин. Екеев Н.В. Алтайская этногония (вопросы состава, типологии, этимологии, стратиграфии) // Древности Алтая. Известия лаборатории археологии. - Горно-Алтайск, 2002а Стр. 126-127

²¹ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер".

²² Авляев (1984), предполагает, что доойратский период (до XIV в.) этногенеза торгоутов (а также, по всей видимости, и хошоутов - Г.С.) протекал к юго-востоку от Джунгарии (возможно в Алашани или Ордосе), т.е. они жили отдельно от ойратов. Он основывается на том, что при первых чингизидах гвардия не была распущена и размещалась в Ордосе, косвенным доказательством этому приводятся этнонимы южных монголов, отражающие воинские наименования бывшей гвардии: кептюль, хорчин, кешигтен, тургаут и т.д., и отмечает также, что там издавна проживали "шаройгольские торгоуты", жившие в верховьях Хуанхэ (Шарай-гол). В статье, посвященной происхождению торгоутов и хошутов, Авляев и Санчилов (1984) ссылаются на "Шара-туджи" и "Илэтхэл шастир" приводят родословные торгоутских ханов. В летописи "Шара-туджи" о торгоутах говорится: "Торгоуты - потомки кэрэйтского Онг-хана, его сын Бадзар, его сын Магата Манхи, его сын Буйга, его сын Дзолцохой Орлук, его сын Гоа Орлук, его сын Шихур-Дайчин...", список не полон по перечню имен. По "Илэтхэл шастир", родоначальника торгоутов звали Онхан, далее идут его потомки: Арсалан, Амгулан, Кэйбэн (Ки-вань или Казбанг - Авт.), Сусэй, Баяр, Махачи Монгхэ (здесь надо "Мэнгей" - Авл., Санч.), Буйго Орлэг, Зулзуган Орлэг, Хо-Орлэг (Хо-Урлюк в русских архивных документах). Этот список более полон, и по нему видно, что от Ван-хана (Онг-хана) кереитского до его потомка тайши Хо-Урлюка прошло 9, а не 7 поколений, но от самого Кэйбина (т.е. Казбанга) до Хо-Урлюка сохраняются прежние 7 поколений. По мнению Габан Шараба, нойон Ки-вань (т.е. Казбанг) по-монгольски именовался как Мергени Еркету (видимо, это почетный титул - Авл., Санч.), а Сосо (Сосуй) как Буяни Теткукчи. Авляев и Санчилов (1984) предполагают, что гвардейский корпус "туркак кешиктен", размещенный в эпоху Юань, по всей вероятности, в Алашани и в Ордосе, превратился в этническое объединение "торгаут". После падения династии Юань охранные войска монгольских ханов в лице "гвардейцев", во главе которых уже стояли наследственные князья, нойоны, ближайшие родственники юаньских императоров, обособились от других монгольских племен и в конце XIV в. ушли на север, где присоединились к ойратам Джунгарии. Период этого объединения (кон. XIV в.) Авляев (1984) выводит на основании ойратских (калмыцких) летописей "Сказание о дербен-ойратах" Баатур Убаши Тюменя и "Илэтхэл Шастир" Габан Шарапа. По мнению Габан Шарапа первого торгоутского владельца примкнувшего к ойратам звали Казбанг (Кибанг, Ки-вань, Кэйбин), по-монгольски он именовался Мергени Еркету. Баатур Убаши Тюмень в "Сказании о дербен-ойратах" писал, что торгоуты присоединились к ойратам, когда у них был хан Мергени Еркету. По "Илэтхэл Шастир" он правнук Онхана (Ван-хана, Тоорила Кереитского - Г.С.) и предок Хо-Орлэга (Хо-Урлюка) в седьмом поколении, т.е. жил примерно в кон. XIV в.

²³ Анализируя данные родословных хошутских князей Авляев и Санчилов (1984) предполагают, что если в конце XIII - второй половине XIV вв. упоминаются уже конкретные имена хошутских владельцев (по Баатур Убаши Тюмению Аксагултай-нойон - потомок Хабуту-Хасара в 6 колена, его сыновья нойоны Ерек-Тимур и Арак Темур были хошутскими владельцами, современниками Тогон-тайши), то, следовательно, существовали и их феодально-этнические объединения под названием "хошоут". И заключают, что этногенез хошутской общности в XIV в. происходил в самой Джунгарии, так как при Эсене-тайши, в Западной Джунгарии правил Алак-Тэмур-джинсанг, а в Восточной Джунгарии его брат Хатан Тэмур (Ерек Темур),

tashlab ketgan g'arbiy Mug'uliya hududlarini egallashdi. Bu vaqtgacha ular "o'rmon xalqlariga" tegishli bo'lgan Sibir va shimoliy Mug'uliya tog' yonbag'rlarida yashashgan. Oyratlar umumchingiz armiyasiga 4 tuman (40 ming) askar berishi kerak edi. Shuning uchun oyratlarning qabilaviy ittifoqini "derben tumen oyrat"²⁴ deb nomlashgan. Oyratlarning XIII asr boshlaridagi umumiy sonini zamonaviy olimlar 200 ming deb berishadi²⁵.

XVI asrda Mug'uliyada feodal tarqoqlik avjiga chiqqan edi. Xuddi shu vaqtda oyratlar davlatini tuzish uchun harakatlarni Xara-Xula boshlab yuboradi. U Ush-Temur-taydjining oltinchi avlodi hissoblanadi: Esen(1), Ush-Temur(2), Xishig-Yerleg(3), Arxan(4), Ongotso(5), Abiday-bula(6), Xara-xula²⁶.

Ush-Temur va Xara-Xula orasidagi besh avlod choras noyonlari haqida bizga hech narsa ma'lum emas. Nima uchun Esenning avlodlari 150 yil davomida tarix saxnasidan ketib qolganlarini bilish qiyin, chunki bu haqidagi manbalarning o'zi yo'qdir.

Xara-Xula (Qora Qulon) – choroslarning 1580 (1590?) – 1634 yillardagi hukmdori va oyratlarning birlashib Jung'or xonligini tashkil topishiga sababchi

хошутские князья (необоснованный на наш взгляд вывод, логичнее представить, что до XIV в., хошуты, как и другие части гвардейского корпуса, локализовались в Алашани и Ордосе, затем при падении Юань участвовали в монголо-китайских конфликтах, после чего в кон. XIV - нач. XV вв. присоединились к ойратскому союзу - Г.С.). Напомним, что Авляев и Санчилов (1984) считают, что этноним хошут (хошоут, хошеут, хошууд, хошот) является производным от слова "хошун" со значением клюв, морда, передовой отряд войска, он относился к седьмому полку в гвардейском корпусе, которым командовал младший брат Чингис-хана Хабуту-Хасар. Хошуном, от которого современные калмыки производят и само имя (т.е. этноним) хошоутов, назывался Стр.ой войска оСтр.ою колонной: люди, стоявшие в голове ее, шли на верную смерть; Авляев и Санчилов (1984) приводят поговорку, записанную Небольсиным у волжских хошоутов "хошун деере дархалык дыксын" - "я выслужил право в голове хошуна".

²⁴ По Златкину (1964), ссылающемуся на монгольские источники ("Алтан Тобчи", "Шара Туджи", "Эрдэнийн Тобчи") в кон. XIV в. "ойраты не знали иного разделения, кроме общепринятого в тогдашней Монголии деления на тумены, тысячи и т. д.; они представляли собой этнически и политически единое целое, население одного объединенного феодального владения, во главе которого стояли единоличные правители и иногда соправители, так называемые джинонги... Отделившись от восточных монголов (после убийства Эльбег-хана, в 1399 г. - Г.С.), т. е. отказавшись подчиняться общемонгольским ханам, ойраты прочно обосновались на западе Монголии, где, управляемые своими ойратскими князьями, повели с начала XV в. самостоятельную внешнюю политику.

²⁵ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер". Смотрите еще Авляев Г.О., Санчилов В.П. К вопросу о происхождении торгоутов и хошоутов в этническом составе средневековых ойратов Джунгарии // Проблемы этногенеза калмыков. Элиста, 1984. Стр. 44

²⁶ Там же. См. также Екеев Н.В. Чоросы — ойротские князья // Материалы к 50-летию института алтаистики им. С.С. Суразакова. № 10. Горно-Алтайск, 2003. Стр.. 4

bo'lgan hukmdor. Uning davlat tuzishda juda ko'p va uzoq harakat qilgani haqida manbalar ko'p emas. "Ubashi-xuntaydji haqida"gi epik asar 1587 yilgi oyrat-xalxaning urushiga bag'ishlangan bo'lib, unda barcha oyrat qabilalari hukmdorlarini birma-bir sanab o'tib ular haqida qisqa ma'lumotlar berib o'tilgan. Unga ko'ra 1587 yilda beshta oyrat qabilalari hukmdorlari orasida Xara-Xula o'z qo'shini soni bo'yicha faqatgina uchinchi o'rinni egallab turgan, eng ko'p qo'shin bo'lsa xoshoutlar hukmdori Baybagasda – 30 ming tsirik²⁷. XVII asr boshida Xara-Xula ikkinchi chulgan-darga (oyratlar konfederatsiyasi yig'ini boshlig'i) bo'lgan, chulga-darganingyana biri yuqorida aytib o'tganimiz xoshoutlar no'yni Baybagas-Botir edi. Chulgan-dargalar oyrat qabilalarining iqtisodiy, diniy, siyosiy-huquqiy masalalarini hal etishda muhim o'rin egallashgan. Oyrat qabilalarining qo'llab quvatlashidan foydalanib Xara-Xula 1628-1629 yillarda daxshatli raqibi va qo'shnisi jung'or-xotogoy Oltinxoni Sholoy Ubashi-xuntaydjini mag'lubiyatga uchratdi.

Taxminan 1630 yillarda Xara-Xula Xo-Urluk boshchiligidagi torgoutlarni Jung'oriyadan Ural va Volga daryolari oralig'iga ko'chib o'tishga majbur qiladi va shu bilan oyrat qabilalari ichidagi ichki kelishmovchiliklarni bartaraf etadi va ularni yashash arealini kengaytiradi²⁸. Lekin bundan avvalroq Gaban Sharabning "Aytganlari" da quyidagi ma'lumot keltirib o'tilgan: "yer-ajdari yilida (ya'ni 1628 yili) torgoutlarninga ajlib chiqish xoxishi borligini oyrat noyonlariga ma'lum qilishgan. Keyingi yer-iloni yilida (ya'ni 1629 yili) ular ajralib chiqishdi."²⁹ Boshqa bir avtorning, Batur Ubashi Tyumenning "Aytganlari" da shuni aytib o'tadi: "natijada ajralgan oyratlar "xalimak"(qalmiq) nomini oldi, 1627 yili oyratlarning qabilaviy ittifoqi parchalandi: elyotlar (ya'ni qalmiqlar) shoshilich

²⁷Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер". См. такжеО монгольском Убаши-хун-тайджи. Бумбин орн. Информационное агенство Республики Калмыкия (ИАРК). Элиста, 2006, 19 июля. Стр.. 4

²⁸ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства. М.: Наука,1983. Стр.. 93-96

²⁹ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука,1983. Глава 2, Образование Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

g'arb tomon ketishdi, xoshoutlar – Tibetga, zyungarlar (ya'ni choroslar) esa o'z yerlarida (Jung'oriyada) qolishdi”³⁰ deb yozib o'tgan.

Shunday qilib ikkala avtor ham bir ovozdan torgoutlarni 1627-1628 yillarda ajralib chiqqan deb yozib o'tgan. Biz bu faktlarga ishonmasligimiz mumkin emas chunki Gaban Sharab o'zi torgoutlarning no'yoni bo'lgan va o'zini “Aytganlari” ni faqatgina torgoutlar Volgaga kelgandan keyin 100 yildan keyin yozgan. Batur Ubayshi Tyumenning ma'lumotlariga ham ishonishimiz mumkin, chunki u ham xoshoutlarning noyonlaridan biri bo'lgan va choroslar bilan qarindoshlik aloqalarida bo'lgan. Bu barchasi ular yozib qoldirgan ma'lumotlarga ishonish mumkinligidan dalolat beradi.

1634 yilda Xara-Xula vafot etdi va “birinchi chulg'an-darg'a” likni o'z o'g'li va merosxo'ri Xoto-Xotsin-Baturga (ikkinchi darg'alikni xoshoutlar noyoni Baybagas egallagan) qoldirdi. Dalay-lama Baturga Erdeni-Batur-xuntaydji (“Bahodirning hazinasi”³¹)nomini bergan va shu nom bilan u Markaziy Osiyo tarixiga kirgan³². Batur-xuntaydji deyarli butun oyrat qabilalari ittifoqi yerlariga egalik qildi, bu hududga faqatgina Xo-Urlyuk orqasidan Volgaga ketib qolgan bir qism oyratlar kirmadi xolos.

1635 yil Jung'or xonligining tashkil topishi tan olingan yil hissoblanadi.³³Sibirlik qo'lyozmachi Cherepanov yozishicha: “yoz paytida birlashtirish boshlandi, bu Kara-Kuli (Xara-Xula)ning o'g'li Batur Taysha bo'lib u o'zining botirligi va jasurligi bilan ularni birlashtirdi, bir qismini Buxarin egalladi. 1635 yildan boshlab u Batur-kontaysha (xuntaydji) deb atala boshlandi ”

U Tarbag'atoyda, hozirgi zamonaviy Chuguchakka yaqin hududda, Emil daryosi bo'yida toshdan poytaxt qurdirgan.³⁴

Galdan-Boshoktu xonning xalok bo'lishi natijasida oyratlar davlati Sevan-Rabdanning (ma'nosi "Прочный Владыка Жизни")³⁵ qo'liga o'tdi. Sevan-

³⁰ Там же.

³¹ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер".

³² Там же.

³³ Там же.

³⁴ Там же. См. также Груссе Рене. Империя степей. Аттила, Чингисхан, Тамерлан. Том 2: История Казахстана в западных источниках 12-20 вв. Алматы: Санат, 2005.Стр. 291

Rabdanning hukmronligi davrida va ayniqsa uning o'rinbosari Galdan-Serenning davrida Jung'or xonligi o'z qudratining cho'qqisiga chiqdi va Sharqiy va Markaziy Osiyo hayotida muhim o'rin tutdi.

Sevan-Rabdan va uning o'g'li Galdan-Seren davrida juda kuchli davlatga aylandi va Markaziy Osiyoda Rossiya va Sin imperiyasiga kuch jihatdan teng raqibga aylandi. Mamlakatda ichki nizolar bartaraf etilib, asosan tashqi urushlar olib borildi. Lekin Galdan-Serenning vafoti xonlikning inqirozga yuz tutishini boshlab berdi. Mamlakatda hokimyat uchun kurash boshlanib, ichki nizolar kuchaydi.

Qisqacha xulosa qilib aytganda, Jung'oriya xonligining paydo bo'lishida Choros urug'ining ro'li katta bo'ldi. Ular avvaldan Chingizxon qabilalar ittifoqiga kirishgan, keyinchalik Jun'goriya hududlariga ko'chib kelib joylashishgan, ungacha ular Sibir va Mug'uliyani tog'li hududlarida yashashgan. Jung'or xonligini tashkil topishiga tamal toshini qo'ygan odam sifatida Xara-Xulani hissoqlashishimiz mumkin. U kuch jihatdan juda ham kuchli bo'lmasada, lekin o'g'li kuchli davlat yaratishi uchun yaxshi zamin hozirlab ketdi. Uning o'g'li davlatni ancha mustahkamladi. Eng gullagan davri Sevan-Rabdan va Galdan-Serenning hukmronlik yillariga to'g'ri keladi.

³⁵ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер.

1.2.Jung'or xonligining inqirozi

Galdan-Serenning o'limi va Jung'or xonligining inqirozini 13 yil ajratib turadi. 1758 yilga kelib oyrat feodallarining tuzgan davlati quladi. Sin imperiyasi va Jung'or xonligi o'rtasidagi deyarli yuz yil davom etgan kurash, Sinlar foydasiga hal bo'ldi.³⁶

Bu davrning voqeyalari to'la ko'rinishda N.Bichurinninng Jung'orlar va oyratlar haqidagi mashxur asarlarida³⁷ o'z aksini topgan. Ular haqida yana P.Richkov, S.Lipovcev, A.Levshin, Ch.Valixonov, M.Venyukov, M.Krasovskiy, Sichovskiy, A.Kuropatkin, N.Bantish-Kamenskiy, B.Kurc va boshqalar ko'p asarlar yozishgan. Agar N.Bichurin va S.Lipovcev ishlari xitoy manbalari va tarixiy hikoyalarga asoslangan bo'lsa, P.Richkov, A.Levshin, Sichovskiy va N.Bantish-Kamenskiy ishlari asosan rus arxivi manbalariga tayangan. Qolgan avtorlar esa yuqoridagi manbalarga tayanishgan va yangi malumotlar topishsa unga ssilka berib o'tishgan.³⁸

Galdan-Serenning o'limi, xon taxtiga vorislar o'rtasida ayovsiz kurashlarning boshlanib ketishiga sabab bo'ldi. Natijada oyrat davlatini o'ta kuchsizlanishi va qulashiga olib keldi.

Galdan-Serenning uchta o'g'li va bir nechta qizi bo'lgan. Katta o'g'li – Lama-Dorji otasi o'limi vaqtida 19 yoshga to'lgandi, o'rtancha o'g'li – Sevan-Dorji-Adja-Nam-jilu – 13 yoshda edi, kenja o'gli – Sevan-Dashi endigina 7 ga to'lgandi. Galdan-Seren taxtni o'rtancha o'g'liga vasiyat qilgandi, u 1746 yilda Adja-xon nomi bilan xon deb e'lon qildi. Lekin u ko'p hukmronlik qila olmadi. 1749 yilda (1750 yil mayda Jung'oriyada davlat to'ntarilishi bo'lib o'tdi va 6 yil davom etgan feodal urushlar boshlandi. Sevan-Dorjiga qarshi Oldzi, Lama-Dorji va Sayn-Beleka qurol ko'tardi. Xon tarafdorlari mag'lub bo'ldi. Sevan-Dorji

³⁶ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука,1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

³⁷ Н.Я.Бичурин. Историческое обозрение ойратов или калмыков с 15 столетия до настоящего времени. СПб.,1834(электронная книга)

³⁸ Там же.

Aksuga yuborildi va o'sha yerda o'ldirilib yuborildi.³⁹⁾ fitna oqibatida taxtdan tushurildi va qatl ettirildi.⁴⁰

1750 yilda Jung'oriya xoni etib Galdan-Serenning katta o'g'li Lama-Dorji Erdeni-Lama-Batur-xuntaydji (букв. "Священное Богатырское Сокровище") ko'tarildi.⁴¹ Lekin uni hukmronlii uzoq davom etmagan. Chunki oyrat oqsuyaklari Lama-Dorjini tan olishmasdi, bunga sabab uni haqiqiy malikadan emas, xizmatkordan tug'ilgan edi.⁴² Kuz paytiga kelib ahvol yanada og'irlashdi, sabab "xoyt knyazlari muammosi" edi. Unga ko'ra ikki aka-uka xoyt knyazlar Chevdar va Amursan taxt talashishdi, Lama-Dorji albatta to'ng'ichni yonini oldi, bundan xafa bo'lgan Amursan esa Lama-Dorjining dushmanlari tarafiga o'tib ketdi.⁴³ Lama-Dorjini taxtdan tushirib o'rniga kenja ukasi Sevan-Dashini o'tkazish uchun til biriktirishdi, ammo u ochilib til biriktirganlar jazolandi.

Hokimyatni Lama-Dorjini qo'liga o'tishi mamlakatda juda katta noroziliklarga sabab bo'ldi. Taxtga munosib shaxs Seren-Dondukning nabirasi Davaci edi, lekin hokimyatni Lama egallab olgani ko'pchilikni unga qarshi qilib qo'ydi. Davacini ajdodiy mulklari Tarbag'atoyda joylashgandi. U yerda yana bir noyon Amursanning ham yerlari bo'lib, u Davaci bilan juda qalin aloqada edi.⁴⁴

1751 yilda Davaci, Amursan va Mokushi (Sevan-Dashining laqabi) birlashib Lama-Dorjiga qarshi kurashishdi, lekin Mokushi tutilib Aksuga yuborildi

³⁹⁾ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер. См.такжеВалиханов Ч.Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том 2. Алма-Ата: Главная редакция Казахской советской энциклопедии, 1985. Стр. 324. См.такжеМоисеев В.А. Джунгарское ханство и казахи (17-18 вв.). Алма-Ата: Гылым,1991. Стр. 202. См.такжеКасымбаев Ж.К. Государственные деятели казахских ханств (18 в.). Алматы: Білім, 1999. Стр. 100.

⁴⁰⁾ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука,1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

⁴¹⁾ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер

⁴²⁾ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука,1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

⁴³⁾ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер. См.также Моисеев В.А. Джунгарское ханство и казахи (17-18 вв.). Алма-Ата: Гылым,1991. Стр. 207.

⁴⁴⁾ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука,1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

va 1752 yilda o'ldirildi, Davaci va Amursan esa avval tuvinlar oldiga, keyin O'rta Juz xoni Abulayni oldiga qochishdi.⁴⁵

1752 yilda Jung'oriyani chigirtka bosdi va shundoq ham tinimsiz urushlar oqibatida tinkasi qurigan xalq hosilsiz qoldi. Rus va shved asirlari yordamida qurilgan qurolsozlik ustaxonalari tanazzulga yuz tutdi. Lama-Dorji Yorkentda o'z tanga ishlab chiqarishini yo'lga qo'yishga harakat qildi. Shu vaqtda qo'qonliklar tomonidan Issiqko'l bo'ylarida temir qazib chiqarayotgan oyratlarni yanchib tashlandi.⁴⁶

1752 yil oxirida Davaci va Amursan Lama-Dorjiga qarshi Abulay yordamida yana kurash boshlashdi. Davaci o'z odamlari yordamida taxtga davо qilib chiqdi. Uning tarafdorlari ushlanib qatl qilindi. Lama-Dorji o'z askarlarini chegaraga tarqatib yubordi, natijada xon saroyi kuchsizlanib qoldi, bundan foydalanib 1753 yil yanvarda Davaci va Amursan hukumatni o'z askarlari bilan egalladi va Lama-Dorji o'ldirildi.⁴⁷ Jung'or xonligining hukmdori Davaci bo'lib qoldi. Lekin bir nechta noyonlar taxtga o'zlarini tarafdorlari Nemexu-Jirgalani xon deb e'lon qilib yuborishdi va oyratlar davlatida ikkita xon bo'lib qoldi. Lekin Davaci Amursan yordamida Nemexu-Jirgalani ham Togua-Kashkuni ham yanchib tashladi va o'ldirdi, va yana yakka xonga aylandi. Amursan Davaciga barcha ishlarda yordamini ayamagan.⁴⁸

1752 yilda Rossiya hukumati Jung'oriya va Qozog'istondagi vaziyatga o'z ta'sirini o'tkazmoqchi bo'lgan. Orenburgdan Abulay huzuriga kapitan A.Yakovlev keladi va quyidagilarni iltimos qiladi:

⁴⁵ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер. См.такжеГуревич Б.П. Международные отношения в Центральной Азии в 17-первой половине 19 в. М.: Наука, 1979. Стр.. 104. См. такжеМоисеев В.А. Джунгарское ханство и казахи (17-18 вв.). Алма-Ата: Гылым,1991. Стр. 205-206.

⁴⁶ Там же. См.такжеВалиханов Ч.Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том 2. Алма-Ата: Главная редакция Казахской советской энциклопедии, 1985. Стр. 325. См. такжеМоисеев В.А. Джунгарское ханство и казахи (17-18 вв.). Алма-Ата: Гылым,1991. Стр. 204.

⁴⁷ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука,1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии. См.такжеЧерненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер. См. такжеМагауин Мухтар. Азбука казахской истории: документальное повествование. Алматы: Казакстан, 1997. Стр.. 117. См.такжеСулейменов Р.Б., Моисеев В.А. Аблай-хан: внешняя и внутренняя политика. Алматы: Жазушы, 2001. Стр. 50-56.

⁴⁸ Там же.

- Qozoq xonini urushda (Jung'oriyadagi urush nazarda tutilmoqda) shaxsan ishtirokidan voz kechish;
- Qochoq noyonlar (ya'ni Davaci va Amursan) ni Rossiyaga topshirish; Bu takliflar Abulay tomonidan rad etilgan.⁴⁹

1753 yilda choras Davaci (букв. "Поддерживаемый Луной"), Erdeni-Baturning evarasi, Jung'or xonligining xoni deb e'lon qilindi.⁵⁰ 3 oy davomida Davaci va Amursan odam, chorva va boylik to'plashdi. Amursanning odamlarning va davlatning yarmiga bo'lgan da'vosi rad etildi. Derbetlarning yetakchisi Nemexu-Djirgala Davaciga qarshi bosh ko'tardi va 9 ming odami bilan qal'ani qamal qildi, Davaci Amursanning yoniga qochishga majbur bo'ldi. 10 kun davomida qal'aga joylashib olgan Nemexu o'zini xon deb his qilardi. Ammo Amursan hiyla ishlatdi, ularni g'alaba bilan qutlash uchun bazmga chaqirtirdi va Celbek daryosi bo'yida barcha qo'zg'alochilarni qirib tashladi.⁵¹

Lekin xonlik Galdan-Seren davridagidek kuchli emasdi. U tushkunlikka yuz tutdi va oyratlarning kuchi hissoqlangan kuchli markaziy hokimyat susaydi. Xonlikni kuchsizlanishini Sin imperiyasi diqqat bilan kuzatib turardi va bundan foydalanishga intilardi. 1739 yilda tuzilgan shartnomaga ko'ra ikkala taraf ham o'rnatilgan chegaralarni buzmaslikka va nizodan qochishga intilishardi. Ular o'rtasida urush bo'lmagani, ular o'rtasida yaxshi aloqalar bo'lganligidan dalolat bermaydi, o'rtada hatto savdo ham to'xtatib qo'yilgan.⁵²

1750 yilda oyratlar davlatining parchalanishini birinchi asoratlari paydo bo'ldi. Shu yilning noyabr oyida bir necha oilalar Sin hududiga qochib o'tishdi. Bir necha oydan so'ng esa oyrat oilasini katta bir guruhi demechi (demechi – 40 oila boshi) boshchiligida ko'chib o'tdi.

⁴⁹ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер. См. также Моисеев В.А. Джунгарское ханство и казахи (17-18 вв.). Алма-Ата: Гылым, 1991. Стр. 216-218.

⁵⁰ Там же. См. также Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

⁵¹ Там же. См. также Моисеев В.А. Джунгарское ханство и казахи (17-18 вв.). Алма-Ата: Гылым, 1991. Стр. 223.

⁵² Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

Sin hukumati har bir kelgan qochoqqa katta mehribonliklar qilib, soliq va majburiyatlarga chegirmalar berishar, turli xil lavozimlar bilan taqdirlashga kirishib ketishdi. Bu bilan bir vaqtda Sin imperiyasi yangi urushga tayyorgarlik ko'rishni boshlab yubordi, chunki ular kuchsizlanayotgan xonlikka hujum qilinsa u qarshilik qila olmasligiga ishonishardi. Xun li ning hukumati o'z kuchlarini mobilizatsiya qila boshladi.⁵³

1752 yildan oyratlarga qarshi urushga tayyorgarlik yanada kuchaydi. Xalxada barcha urushga yaroqli erkaklarning ro'yxatga olishga buyruq berildi. 1752 yil yozda Erdeni-dzu da xalxalik askarlar ko'rigi bo'lib o'tdi va bu yerda qal'a va devor qurildi. 1753 yil bahordan Sinning Jung'oriya bilan chegarasiga yangi qo'shinlar yangi qurollar, artilleriya va oziq-ovqat zahiralar bilan yaqinlasha boshladilar.

1753 yilda Sin imperiyasiga Galdan-Serenning ikki nabirasi boshchiligida 3000 oyrat oilasi qochib o'tdi, ular hokimyatga Davacini kelishidan norozi edilar. Ular Pekinga yuborildilar va yuqori lavozimlarga tayinlandilar, xalxalik zodagonlardan yerlarni tortib olib oyrat noyonlariga in'om qildilar. Ularni Xalxaning eng janubi g'arbidagi Darangi degan hududga yashash uchun jo'natdilar. Keyinchalik bu qochib kelgan oyratlar orasida noroziliklar keltirib chiqara boshladi, ular endi Jung'oriyadan qochganlariga afsuslanardilar. Sin chegarasidan o'tib ketayotganda ikki oyrat ushlendi va ular yonidan Jung'or knyaziga atalgan maktub topishdi, unda sinliklar qochoqlarga umuman ishonmayotgani hamda kun bermayotganini, jungorlar chegarasida o'z qo'shinlarini ko'paytirayotgani, jungo'rlar o'z kuchlarini mustahkamlashlarini va chegaraga yaqinroq tutishlarini yozib o'tilgandi.⁵⁴

Sibir qo'shinlarini qo'mondoni general Kroft 1755 yil boshida Sin qo'shinlarini Jung'oriyaga bostirib kirishi aniq bo'lib qolgan holatda o'z hukumatiga "oyrat qochoqlarini qabul qilish yoki qilmaslik haqida maslahat so'ragan. Uning fikricha ularni qabul qilmaslik kerak, chunki ularni ortidan Sin

⁵³ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

⁵⁴ Там же.

qo'shini ham paydo bo'lishi mumkin va bu holat juda havfliligini, ularni himoyasi dosh berolmasligini habar bergan.⁵⁵

Rossiyaning harbiy jahatdan ojizligi bo'lmagan narsa emas. Bu vaqtga kelib himoya devorlari bitgan bo'lsa ham ular orasi juda uzoq, har bir qal'a bir-biridan 30 km uzoqda joylashgan, va oraliqni qo'riqlaydigan askarlar yetishmasdi. Bu holatda ularni havfsirashi o'rinli edi.⁵⁶

Ruslarni qozoqlar va oyratlar o'rtasidagi munosabat tashvishga solardi. Qozoqlar ham oyratlarning kuchsizlanishidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qilishardi. Hatto 1745 yilda Orenburg gubernatori I.Nepluyev O'rta Juz hukmdorlarini oyratlar yeriga bostirib kirishdan qaytargan. Ular oyratlar va qozoqlar o'rtasida urush bo'lmasligiga harakat qilishardi, ular o'rtasida ittifoq yuzaga kelishidan ham havfsirashardi. 1749 yilgi Lama-Dorji va Abulxayr o'rtasidagi qarindoshlik rishtalaridan juda havotirga tushishdi, chunki Lama-Dorji Abulxayrning qiziga sovchi yuborgan edi. Qozoqlar bu nikohga rozi bo'lishmoqchidi, ammo kelinning to'satdan kasal bo'lib qolishi va vafot etishi bu narsani yo'qqa chiqardi.⁵⁷

Davaci xon deb e'lon qilindi, lekin Amursan va'da qilingan narsalarini ololmadi va ular orasida kelshmovchiliklar kelib chiqa boshladi. Bu kurashda qozoq amaldorlari ham faol ishtirok etishdi. 1754 yilda Amursan va Abulay o'rtasida Davaciga qarshi ittifoq tuzildi.⁵⁸ Amursan Abulay huzuriga o'z ukasi Baljirani yubordi: u O'rta Juz hukmdoridan 4 ming ot va tuya, 10 ming qo'y so'radi va "nimani so'rasa o'sha bilan qaytarib to'lashiga va'da berdi". Abulay so'ralgan yordamni berdi, Amursan esa o'z navbatida buxoro gilamlari va qurollari, va Davaci mulklarini talashda qo'lga tushgan qullar- erkak, ayol va bollarni berdi.⁵⁹ Keyin Amursan Abulayga Davaciga qarshi qo'shin tortishni taklif

⁵⁵ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

⁵⁶ Там же.

⁵⁷ Там же.

⁵⁸ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер."

⁵⁹ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

qildi, Abulay bunga ham rozi bo'ldi. Lekin Amursan birinchi jangda mag'lub bo'ldi va chekinib Xalxaga o'tdi va u yerdan Singa o'tib ketdi. Bu ga'labadan so'ng Davaci 1754 yil avgustida Pekinga tinchlik shartnomasi tuzish uchun elchilar yubordi. Lekin Sin imperiyasi bu shartnomani qiziq deb topmadi. Ular uchun oyratlarni davlati yo'q bo'lib ketgani qiziqroq edi va shuning uchun ular bu yo'lda Amursandan foydalanishga qaror qildi.⁶⁰

Amursan Sin imperiyasiga xizmat qilishini aytdi va uni Pekinga taklif qilishdi. Imperator Xun Li unga "sinvan" (1-darajali knyaz') unvonini berdi va taxtni egallashga yordam berishini aytdi. Sin imperiyasi Amursandan o'z quroli sifatida foydalanmoqchi bo'ldi, chunki ularning asosiy maqsadi Jung'or xonligini yo'q qilish edi.⁶¹

Sin imperiyasida Jung'or xonligini yo'q qilish uchun juda qulay sharoit paydo bo'ldi. Jung'oriya chegarasidagi 200 ming sin qo'shinini mobilizatsiyasi boshlab yuborildi. Imperiya hududida otlar, tuyalar, oziq-ovqat va yem-hashaklarni tortib olish boshlab yuborildi. Har bir jangchi: miltiq, qilich, nayza, kamon va 40 o'q bilan qurollangan edi; ularning kuchli artilleriyasi ham bo'lgandi. 1755 yilda Xun Li qaroq chiqardi: "qaroqga ko'ra barcha xalxalik knyazlar qurol ko'tarishga qodir erkaklarni yuborishiga majbur qilindi". Avvaldan harbiy xizmatdan ozod qilingan shabinarlar ham urushga jalb qilindi.⁶²

1755 yil bahorida armiya hujumga tayyor bo'ldi. Armiya ikki qismga bo'lingandi. "Shimoliy" qismiga manchjur generali Bandi boshchilik qilib, u Ulyasutay rayonidan o'tib Borotol vodiysiga yo'l oldi. "Janubiy" qismga ham manchjur generali Yunxan boshchilik qilib, qism juda kuchli avangardlarga ega edi. Avangardlarni sinlar tarafga qochib o'tagan oyrat-knyazlari boshqargan, Amursan ham avangardga boshchilik qilgan.⁶³

⁶⁰ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

⁶¹ Там же.

⁶² Там же.

⁶³ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии. См. также Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер."

Sin qo'shinlar hech qanday qarshiliksiz Ili daryosidan kechib o'tishdi. 1755 yil 25 iyulda Yakobi shuni ma'lum qiladiki: "qo'shnlar Ili daryosini kechib o'tganlarida hech qanday qarshilikka uchramadilar. Davaci urushni emas tinchlikni hohlamoqda." Sin qo'shinlari orasida Amursan ham borligini eshitib ko'p zengorlar Davacini tashlab Amursan tarafiga o'tib ketishgan..⁶⁴

Davaci sinlarning bositib kirishini Pekinga yana bir elchi yo'llab to'xtatmoqchi bo'ladi. O'z o'gliga yana 6 kishini qo'shib Pekinga tinchlik shartnomasi uchun yuboradi. Sinlarga tinchlik emas Jung'or xonligining yo'q bo'lishi kerak edi, shuning uchun Davaci taklifi javobsiz qoldiriladi. Amursan uni ta'qib qilishni boshlaydi. Davacini qochishdan boshqa iloji qolmaydi. U hatto xotin va bolalarini ham tashlab Qoshg'arga qochadi, u yerda uni Kucha shahri musulmonlar hukmdorlari uni ushlab olib Amursanga, u esa sin qo'shini qo'mondoniga yuboradi. Davaci Pekinga yuborildi va imperator qaytguncha ushlab turish buyurildi, u bilan birga tutilgan noyonlar esa zindonga tashlandi..⁶⁵

Sinlar tomonidan Jung'oriyada tibet tilida yozilgan varaqalar tarqatilgan, unda sinlarga vassaligini tan olib ularga qo'shilsa tashqi dushmanlardan himoya qilishni yozib o'tilgandi..⁶⁶

Necha yillardan beri Sin imperiyasi bilan ayovsiz kurashlar olib borgan Jung'or xonligi deyarli kurashsiz taslim bo'lib qoldi va Sinning ta'siri ostiga tushib qoldi.

Egallangan oyrat hududlari hokimyatini tubdan o'zgartirib yuborishdi. Uni 4 ta bir-biridan mustaqil knyazliklarga: - Xoyt, Derbet, Xoshout va Choros bolib yubordi va ularning hukmdorlari bevosita Pekinga bo'ysundurildi..⁶⁷

Sinlar g'alabani nishonlashardi. Tez orada armiyani tarqatib yuborishdi, chunki Xalxa askarlari orasida noroziliklar kuchaya bordi. Sin hukumati Jung'oriyadagi g'alabani mag'lubiyatga aylanishini xohlamas edi.

⁶⁴ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

⁶⁵ Там же.

⁶⁶ Там же.

⁶⁷ Там же.

Xalxa aholisi Sindan juda ham ko'p jabr chekardi. Chunki ularning xo'jaligi asosini chorvachilik va yilqichilik tashkil etgan. Shuning uchun ular sin qo'shiniga ot-ulov, go'sht, sut, teri mahsulotlarini yetkazib berishga majburlangan. Undan tashqari eng ko'p askarlar ham Xalxa erkaklari orasidan olingan, har bir erkak o'z hisobidan qurollanishi majbur bo'lgan. Natijada urush tufayli xo'jalik ishlari qolib ketgan, bu esa xalqni ichida noroziliklar ko'payishiga sabab bo'lgan.⁶⁸

Bu vaqtda mo'g'ullarning ahvoliga kelsak, ular orasida sinfiy kurashlar, talonchilik avj oldi. Hattoki Onon daryosi bo'yida 200 kishidan iborat "o'g'rilar guruhi" paydo bo'lib, ular chegara hududlariga hujum qilar va ot-ulov, oziq-ovqatlarni talab ketishardi. Sesen-xon ularni yo'q qilish uchun avval 300 kishi, keyin 1000 kishilik askarlar guruhini yo'llashga majbur bo'lgan.⁶⁹

Undan ham o'g'ir ahvolda oyrat mehnatkashlari qoldi. Shundoq ham qiynalib yashayotgan aholi endi sinlarga ham qaram bo'p qoldi. Avvallari aholi o'zi hoxlagan hududga ko'chib o'tib yashashi mumkin bo'lsa, endi barcha hududlar sin odamlari tomonidan nazorat qilinar va qochib ketish mumkin emas edi.⁷⁰

Rossiyaga qochib o'tishning iloji bo'lmagan. Xalxaliklar ham, oyratlar ham bu narsa nima bilan tugashini yaxshi bilishardi. Qochoq rus yerlarida ushlansa, u o'z ho'jayniga qaytib yuborilar va ho'jayini uni bu qilmishi uchun qattiq jazolar edi.⁷¹

Sin qo'shini ichidagi ahvol Jung'oriya va Xalxadan askarlarni tezlik bilan olib chiqib ketilishiga sabab bo'ldi. Rus chegara postlarini xabar berishicha 1755 yilning sentyabrda Rossiyaning Jung'oriya bilan chegaradosh hududlarida sin qo'shinlari yo'q edi. Ularning juda katta qismi uylariga qaytarib yuborilgandi. Faqatgina Jung'oriya va Xalxaning muhim joylaridagina bir qism askarlar saqlanib qolingan.⁷²

⁶⁸ Там же.

⁶⁹ Там же.

⁷⁰ Там же.

⁷¹ Там же.

⁷² Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

Sin imperatori Xun Li oxirgi mo'g'ul davlati Jung'or xonligini rasmiy marosim bilan o'ziga bo'y sundurgani va qo'shib olganini nishonlamoqchi bo'lgani haqida taxminlar bor. Bu marosim Dolonnorda bo'lib o'tishi kerak edi, bu shaharda 64 yil oldin Xalxani Sin imperiyasiga qo'shib olish marosimi bo'lgan edi. Bu taxminga asos bo'lib Yakobining ma'lumoti olinadi va unga ko'ra 1755 yil 7 avgustida imperator Xun Li Tushetu-xan Dondok-Dorji va ugin urug'i bogdogeniga buyruq yo'llab, ularni tezlik bilan Dolonnorga yetib kelishi va o'zi ham o'sha yerga borib "xuntaydjilarni Singa qo'shilganini bildirmoqchi edi."⁷³

Lekin xatto Pekinda Jung'oriya ustidan qozonilgan g'alabani nishonlashga ulgurmay, vaziyat tubdan o'zgarib ketdi: Amursan sinning tobe'ligidan voz kechib, o'ziga sodiq 500 kishi bilan Jung'oriyaga ketib qoldi.⁷⁴

Yakobining 19-oktyabr 1755 yilgi dokladiga ko'ra, Amursanning Sin yordamida taxtni egallashga bo'lgan niyatlari puchga chiqdi va 1755 yil sentyabrda singa qarshi kurash boshladi. Bu paytda Amursan Xalxada edi. U yerga Davacini kuzatib kelgandi. O'zi bilan oyratlardan iborat kichik qo'shini bor edi. U Sesen-xan aymog'idan bo'lgan xalxa qo'mondondonlari Delegvan va Vanjilvan bilan til biriktirib, chegaradagi manchjur askarlariga hujum qildi va ularni yorib o'tib Jung'oriyaga qochdi. Manchjur qo'mondonligi uning orqasidan katta qo'shin yubordi, lekin qo'shin uni quvib yeta olmadi.⁷⁵

Amursanning qochishi Pekinda katta shovqinga sabab bo'ldi. Imperator Xun Li g'azabga keldi va tarqatilgan barcha qo'shinni qayta yig'ishni buyurdi.

Bu vaqtda Amursan avval Tarbag'atoyda, keyin Ili bo'yidagi xonlar urgasiga joylashdi va qish paytidan foydalanib qo'shin to'plashga kirishdi. U butun Jung'or noyon va zaysanglariga Singa qarshi birlashish haqidagi maktublarni yubordi.

Amursanning chaqiriqlariga bir nechta noyon va zaysanglar kelishdi. Ba'zilar uni ota tomondan Erdene-Baturdan emasligi uchun tan olishni

⁷³ Там же.

⁷⁴ Там же.

⁷⁵ Там же. См. также Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер."

xohlashmadi va xon sifatida Galdan-Dashini nomzodini ko'rsatishdi.⁷⁶ Unga Davacini qo'llab quvvatlagan noyonlar ham qo'shilishmadi, chunki ular uni qasd olishidan qo'rqishdi. Shunga qaramay 1755 yil oxiri va 1756 yil boshlarida Amursan tarafdorlari uni xon qilib ko'tarishdi.⁷⁷

Amursan va Galdan-Dashi tarafdorlari o'rtasida qattiq kurash boshlandi va bu kurashda Amursan mag'lub bo'lib Ili bo'yiga qochishga majbur bo'ldi. U yordamga Abulayni chaqirdi. Abulay 10 ming qo'shin bilan yetib keldi, lekin bu ham yordam bermadi. Amursan manchjurlarning juda katta qo'shinlari kelayotganini eshitib yana O'rta Juzga, Abulay oldiga panoj so'rab bordi.⁷⁸

Sin imperiyasi ham vaqtni zo'ye ketqizishmadi. Imperator Amursanni qochirib yuborgani uchun xalaxlik feodalni Pekinga chaqirtirdi va qatl ettirdi. Endi yanada kuchliroq va yanada ko'proq qo'shin tuzila boshlandi. Yakobining 11-yanvar 1756 yilda bergan ma'lumotiga ko'ra "qo'shin soni 400 mingdan kam emasdi, uni 6 ta general boshqarardi, ulardan beshtasi manchjur, bittasi Shadarvan ismli mug'ul xotogoy ". Imperator Xun Li qo'shinga "bahordan kech bo'lmagan vaqtda xuntaydjilarga yurish boshlansin va Amursan tutib kelinsin" degan buyruq berdi.⁷⁹

Sin hukumati Amursanga qarshi kurashish uchun O'rta Juzni o'zlariga ittifoqdosh qilmoqchi bo'lishdi va Abulay huzuriga 30 kishilik elchilik missiyasi jo'natildi. Lekin elchilar Ilida Amursan va Rossiya o'z hududidan o'tishga ruxsat bermagani tufayli Abulaygacha yetib borishmadi. Qozoqlar to u hukmdor, to bu hukmdorni yonini olib, oxirida ko'plab mol va qullar bilan qaytishardi.

Sin qo'shinlari Jung'oriya hududida deyarli hech qanday qarshilikka uchrashmadi va endi oyratlarni qirishni boshlab yuborishdi. Amursanning Abulay huzurida ekanligidan habar topib 1756 yil avgustida O'rta Juzga hujum qilishdi,

⁷⁶ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер.

⁷⁷ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука,1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

⁷⁸ Там же. См.такжеЧерненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер.

⁷⁹ Там же.

jangda qozoqlar mag'lub bo'ldi. Ular rus chegarasiga chekinib, ruslardan himoya so'rashdi.⁸⁰

Ruslardan himoya so'rash 1753 yildayoq boshlangandi. 1755 yilga kelib 40 mingga yaqin oilalar podshoni qarorini kutib turishardi. Ko'plab oyrat zodagonlari o'z mol-mulki, hizmatkorlari bilan urushdan qochib rus yerlarida panoh topishni xohlashardi.⁸¹

Rossiya juda qiyin siyosiy ahvolda qoldi. Agar qochoqlarni qabul qilsa sinlar tomonidan norozilik bo'lib ketishi va noxush oqibatlarni keltirib chiqishi mumkin edi. Undan tashqari oyrat feodallari qochqin bo'lsa ham xalq orasida obro'ga ega va ruslarga qarshi bosh ko'tarishidan cho'chirdi. Shunday bo'lsa ham ular qochoqlarni qabul qilish va hohlagan joyda yashashga ruxsat berishdi, agar sin tomondan norozilik bo'ladigan bo'lsa, 1731 yildi Peterburgga kelga elchilarning "Rossiyani Jung'oridan qochgan qochoqlarni qabul qilishiga Sin imperiyasini qarshiligi yo'qligi va hatto oyratlarning bir qism yerini ruslarga berishi mumkin" degan gaplarini eslatishga qaror qildi. Qochoqlar kelishi hatto 1758 yilgacha davom etgan.⁸²

1756 yil iyunda Orenburgga Amursanning Abulay huzurida ekanligi ma'lum bo'ldi. Neplyuyev va Tевкелев Amursanga maktub yozishdi va uni Rossiya chaqirmoqchi bo'lishdi. O'rta Juzga boshqird starshina Abdulla Kaskinovni rasmiy ravishda Orskga nega qozoq savdogarlari kemayotganini bilish uchun, va hufyona maktubni Amursanga topshirish uchun yuborishdi. Avgustda Abdulla yo'lga chqdi va oy oxirida Abulay huzuriga yetib bordi. U borgan vaqtda Abulay manchjurlarga qarshi urushda edi, Amursan ham u bilan birga edi. Abdulla Abulayni kelishini bir yarim oy kutdi. Abulay urushdan yarador qaytdi. Amursan ham qaytdi, lekin uni 30 qozoq askarlari doimiy nazoratda ushlab turardi. Keyinchalik Abdulla bildiki, Amursan bu yerda huddi asirdek yashayotgan ekan. Abdulla maktubni Amursanga yashirinchа yetkazdi. 31-oktyabrda Abdulla

⁸⁰ Там же. См.такжеЧерненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер.

⁸¹ Там же.

⁸² Там же.

Kaskinov Orenburgga qaytib keldi va ko'rganlarini barchasi haqida ma'lumot berdi.⁸³

1756 yil kuzining oxirida Amursan Tarbag'atoyga qaytdi va yana kuch to'plashga kirishdi. U Xalxadagi antimanchjur guruhlar bilan birlashishga harakat qilardi. U yerda 1756 yil yozida feodal Sengunjab boshchiligida qurolli qo'zg'alon ko'tarilgandi.

Xalxada ahvol jada yomon edi. Amursanning bosh ko'tarishi va qo'shining qayta to'planishi juda katta noroziliklarga olib keldi. Xalqning qo'lidagi barcha oziq-ovqat, ot-ulov tortib olindi. Hatto savdogarlar uchun karvonsaroylarda charchagan otni almashtirish uchun ot qolmaganligi aytib o'tilgan. Undan tashqari 1755-1756 yil qishi juda qattiq kelib, ko'plab chorvalar halok bo'ldi.

1756 yildagi Xalxada bo'lib o'tgan Sengunjab boshchiligidagi qo'zg'aloniga Amursanning qochishida aybdor deb topilgan, Xalxa bogdogenining ukasi, lashkarboshi Erensin-Dorjining qatl etilishi sabab bo'ldi. Sengunjab 2 ming qo'shini bilan o'z yurti Kosogolga qaytib ketdi va Xalxaning barcha chekkalariga choparlar yubordi hamda manchjurlarga qarshi kurashga birlashishga chorladi. Ular bilan bir qatorda Amursan bilan ham bog'landi.

Sengunjab qo'zg'aloni Mug'uliyada keng tarqalib ketdi. Jung'oriya bilan chegaradagi xalxa knyazlari o'z yerlarini tashlab sinlar yetib borolmaydigan hududlarga ko'chib ketishdi, natijada sinlarning Jung'oriya bilan aloqa qilib turishi qiyinlashdi. Vaziyatni yanada jiddiylashishidan qo'rqqan sinlar zudlik bilan qo'shinlarni Jung'oriyadan olib chiqib, xalxalik askarlarni uylariga qaytarib yubordi.⁸⁴

Sin imperiyasi Mug'uliyadagi o'z mavqe'yini yo'qotishni xohlamas edi. Jung'oriyada oyratlarni talash va qirish davom etardi. Xalxada esa – ayg'oqchilik va terror avj oldi. 17 yanvar 1757 yilda sin hukumati Singunjabni tutishga muvaffaq bo'ldi va uni Pekinga olib ketdi. Uning ikki o'g'lini ham tutib Pekinga olib ketishdi. 12 iyun 1757 yilda Singunjab va uning ikki o'g'li qatl etildi.

⁸³ Там же. См. также Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер.

⁸⁴ Там же.

Qo'zg'alongning ko'plab ishtirokchilari ham tutildi va Pekinga olib borilib qatl etildi.⁸⁵ 24 yanvar 1758 yilda 34 yoshli bogdo-gegen vafot etdi, undan 2 oy o'tib teshetuxan aybog'inining chulg'a-darg'asi vafot etdi, yana 2 oy o'tib Teshetuxanning o'zi vafot etdi. Bu uch Xalxa yetakchilarini o'limida sinlarning qo'li borligi shubxasiz edi.⁸⁶

Xalxadagi xalq harakati hali yaxshi rivoj topmay turib, daxshatli ravishda bostirildi.

Bu vaqtlarda Amursan Sin imperiyasiga qarshi o'z qo'shinlarini tuza boshladi. 1756 yilda u Singunjab bilan 1757 yilda birgalikdagi urushlarga kelishib olishgan. Sengunjab bilan aloqalarni mustahkamlab borar ekan, Amursan ruslardan yordam so'rashga harakat qiladi va Peterburgga Elizavetta nomiga maktub yo'llaydi. 1757 yili iyun-iyul oylarida Peterburgda Amursanning odami zaysan Dava bilan muzokaralar olib borildi. Amursan Rossiya hukumatidan "uni va oyratlarni sinlardan himoya qilishi, unga barcha oyratlarni birlashtirishga yordam berishi, bir qasr qurib Amursanni u yerda joylashishiga yordam berishini" iltimos qiladi. Rus hukumati bu iltimos o'rinsiz ekanligi, Rossiya Sin bilan janjal chiqishini xohlamasligi, agar istasa Amursanning o'zi Rossiyaga kelishi va o'zi istagancha bu yerda barcha shohona sharoitlar bilan yashashi mumkinligi aytilgan. 23 sentyabr 1757 yili Dava javob maktubi va sovg'a salomlar bilan Jung'oriyaga qaytib ketgan.⁸⁷

1757 yil bahorida Amursan Sengunjab bilan birlashish maqsadida sharqqa, xalxa-oyrat chegarasiga yo'l oldi. U yerga yetib borib Sengunjabni qatl etilganidan habar topdi va Barkuldagi sin garnizoniga hujum qilib uni yanchib tashladi. 1757 yil bahori va yozida Amursan boshchiligidagi 10 minglik oyrat qo'shini bilan 50 minglik sin qo'shini o'rtasida Tarbag'atoyda shiddatli janglar bo'lib o'tdi va

⁸⁵ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

⁸⁶ Там же.

⁸⁷ Там же.

kuchlar teng bo'magan jangda Amursan mag'lub bo'ldi. U chekinishga majbur bo'ldi.⁸⁸

Sinlar Amursanni qidirib Semipalatinsk chegarasigacha kelishdi va rus hukumatidan Amursanni berishni talab qildi. Rus hukumati bu so'rovni rad etdi va oyrat qochoqlarini so'rashga Sinning haqqi yo'qligi, ular singa bo'y sunishsada ozod inson ekanligini aytdi. Va yana Amursanni talab etish emas, berishni iltimos qilishni aytishdi. Ruslar uni berishga majbur emasligi va do'stlik uchungina bu narsani qilishi mumkinligini Sinlarga ma'lum qildi. Bunday javob Sin imperatori Xun Lini o'ta g'azablantirdi. O'sha paytda Sindagi Rossiya elchisi Bratishevning aytishicha, sinlar ruslarga qarshi xattoki urush qilmoqchi bo'lishdi.⁸⁹

28 iyul 1757 yilda Amursan Semipalatinskka yetib keldi. Ikki kundan so'ng Yamishev qal'asiga keldi, u ospa bilan kasallangan edi va unga tibbiy yordam ko'rsatildi. 31 iyulda Tobolskka jo'natildi, u bu yerga 20 avgustda yetib keldi. 22 avgustdagi Sibir gubernatori Gralyonoviy bilan suhbatida u, ko'plab oyrat knyazlari kabi Rossiyada himoya topmoqchi ekanligini ma'lum qildi.⁹⁰

Amursan rus chegaralariga ketayotganda unga to'satdan Abulayning odamlari hujum qiladi, bu safar Abulay sinlar bilan til biriktirgan edi. U zo'rg'a sakkizta odami bilan qutulub qoladi va Irtishga qarab qochadi. Uni Tobolskka joylashtirishadi. U hotirjam Davaning kelishini kutib o'tirardi va to'satdan yana ospa bilan kasal bo'lib qoladi va olti kundan so'ng 35 yoshida vafot etadi.⁹¹

Oyrat xalqi uni bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashgan so'nggi qahramon sifatida eslab qoldi.

Sin hukumati Amursanni Irtishda cho'kib ketgan deb o'ylab, alohida bir guruh odamlar ajratdi va kemalarda Amursanni murdasini qidirishga buyurdi. Keyin ular Amursan ruslar qo'lida ospadan vafot etganini eshitib uni murdasini berishni talab qildi. Ruslar buni rad etdi va 1 noyabr 1757 yilda sibir gubernatoriga

⁸⁸ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

⁸⁹ Там же.

⁹⁰ Там же. См. также Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер."

⁹¹ Там же.

Amursanni murdasini chegara hududga, Kyaxtaga sinlar ko'rish va tan olishi uchun yuborishni buyurdi. Lekin 18 fevral 1758 yilda Pekin Amursanni murdasini so'rab yana maktub yo'lladi. 13 mart 1758 yilda Kyaxtaga Sin hukumati vakillari kelib Amursanning murdasini ko'rishdi. Lekin bu ham kamlik qildi. 28 mart 1758 yilda Amursanning murdasini berishni yana talab qildi va qat'iy rad javobini oldi, bu esa Rossiya va Sin o'rtasidagi munosabatlar sovuqlashishiga sabab bo'ldi.⁹²

1758 yildan keyin oyratlarni ommaviy qirg'ini uyushtirildi. Cherepanov qo'lyozmasi ma'lumotiga ko'ra "odamlar va chorva hammasi qirildi, faqatgina rusga qochganlar omon qoldi xolos." Usha vaqtdagi 600 minglik oyrat oilasidan faqatgina 30-40 minggi Rossiyaga qochib omon qoldi.⁹³

Jung'oriyani qirish 1759 yilda oyratlarning Yulduz tog'idagi oxirgi kurash o'chog'ini sinlar tomonidan egallangandan keyin to'xtatildi.⁹⁴

Oyratlarni yanchib tahlagan qo'mondonlar Chjao Xoy va Fu De o'z qo'shinlari bilan yurushni Sharqiy Turkistonni egallash bilan tugatishdi. 1760 yilda Jung'oriya va Sharqiy Turkison hududida Sinszyan ("yangi chegara") provinsiyasi tuzildi.⁹⁵

Qisqacha xulosa qilib aytganda, Jung'or xonligining oxirgi yillarida, Baturxuntaydji, Sevan-Rabdan, Galdan-Seren hukmronligida sodir bo'lgan o'zgarishlar (dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, manufakturani paydo bo'lishi, hokimyatni markazlashtirish va b.) juda kuchsiz bo'lgan va qadimdan davom etayotgan feodalizmga qarshi tura olmadi. Natijada ichki kurashlar boshlanib, davlat kuchsizlandi va sinlarga qarshi turib bera olmadi.

⁹² Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии. См. также Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер."

⁹³ Там же.

⁹⁴ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 6. Гибель Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии. См. также Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер."

⁹⁵ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер."

2-BOB. Jung'or xonligining boshqaruv tizimi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti

2.1. Jung'or xonligining boshqaruv tizimi va mamlakatning ichki siyosati

Oyrat feodal birlashmasi boshida Choros urug'idan chiqqan xon turgan. Uning kuch qudrati uning yerlari, chorvasi, hizmatkorlari, boyligi bilan belgilangan.

Jung'oriya xoni xonlikdagi birinchi shaxs bo'lgan. Undan bir pog'ona pastda buyuk knyazlar - xoshout, derbet, xoyt va boshqa yirik uluslar hukmdorlari turganlar. Ulardan keyin *taydji* yoki rus manbalarida *taysha* lar turganlar, ular kichik knyaz deb ham yuritilganlar. Ular knyazlarga itoat qilishsa ham o'z uluslarini erkin boshqarganlar.⁹⁶

Knyazlar, no'yonlar mulklari ichida bir nechtdan uluslar bo'lgan. Uluslar ham bo'lingan va *ulus* yoki *aymak* deb nomlanib hukmdorlari – *zaysang* deb nomlangan. V.Bkuninning yozisha, qalmiqlarda “har bir ulus maxsus nom va no'yoniga ega bo'lib, no'yonning bir necha zaysaglari bo'lgan. Har bir aymoqda 10-100 ta gacha kubitok ya'ni oila bo'lgan. Agar no'yon vafot etsa uning mulki farzandlariga bo'lib beriladi, katta o'g'liga qolganlarga nisbatan ko'proq mulk berilgan.”⁹⁷

Oyrat manbalari – Batur-Ubashi-Tyumen va Gaban-Sharabning “Aytganlari”, Zaya-Panditaning biografiyasi va rus arxiv materiallari V.Bakunin, P.Pallas, K.Kostenkova va shu mavzuda ish qilgan boshqa olimlarning ishini tasdiqlaydi. F.Baykova, I.Unkovskiy, M.Etigerova, L.Ugrimovalarning sayohat jurnallari va boshqa ko'plab hujjatlar ham Jung'or xonligidagi ijtimoiy tuzum Kalmikiyaga juda o'xshash bo'lgan. Ikkalasida ham mamlakat boshida xon, undan

⁹⁶ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 5. Общественный и политический Стр.ой Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

⁹⁷ Там же.

keyin katta knyazlar, undan keyin n'oyonlar, undan keyin esa zaygaslar, undan keyin kichik knyazlar o'rin egallashgan.⁹⁸

Jung'or xonligini Kalmikiya bilan taqqoslanayotganda faqatgina bir jihatni farli deb aytish mumkin, ya'ni Jung'oriyada markaziy hokimyat Kalmikiyaga qaraganda ancha mustahkam va markazlashgan bo'lgan. Bu markazlanish vaqti Batur-xuntaydjidan to Galdan-Tserengacha, ya'ni deyarli 100 yil davom etgan. Jung'or xonligida Kalmikiyaga qaraganda qo'zg'alonlar kam bo'lardi va bo'lsa ham tezda bostirilardi. Bu qo'zg'alonlar asosan bir xon vafot etib o'rniga boshqa xon o'tirish vaqtida ro'y berardi. Bu holatlar Senge Baturdaying o'rniga o'tirganda, Galdan Sengeniy o'rniga o'tirganda, Galdan-Tseren Sevan-Rabdanni o'rniga o'tirish vaqtida bo'lib o'tgan, lekin bu qo'zg'alonlarning barchasida "haqiqiy" valiahd g'alaba qilgan.⁹⁹ Mag'lub bo'lgan qo'zg'alonchi esa mamlakat hududidan qochishga majbur bo'lgan. Jung'oriyada anchagina tinch payt deb XVIII asrning birinchi yarmini yozib o'tishadi.

Jung'or feodallarining asosiy qismini cherkov knyazlari, yuqori lamalar egallashgan va 1640 yilgi qonunlarga ko'ra tanlab olingan. Jung'oriyada lamaizm safi, Mug'uliyadagi kabi, asosan knyazlarning kichik o'g'illaridan to'ldirilgan, chunki kichik farzandlarni hokimyatga chiqish ehtimoli juda kam edi. Cherkovga iyerarx sifatida ishga kirgandan so'ng bu kichik farzandlar ham katta-katta mulklarga, uluslarga va nutuglarga, minglab bosh chorva egalariga aylanishardi. Ular o'z podalarini hohlagan knyazning yerida hech qanday soliqlarsiz boqish huquqiga ega bo'lganlar. Ular minglab kambag'allarni ishlatishgan. Lamalar mamlakatda va xalq orasida juda katta obro' va e'tiborga ega bo'lishgan. V.Bakunin ular haqida quyidagicha yozadi: "ularga katta hurmat bilan sig'inishadi, lama cherkovi bosh koxini *pache lama* yoki *xutuxu* ni kichik xudo deb bilishgan."¹⁰⁰

⁹⁸ Там же.

⁹⁹ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 5. Общественный и политический Стр.ой Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

¹⁰⁰ Там же.

Shunday qilib Jung'oriyadagi feodallar tabaqasiga quyidagilar kirgan: buyuk knyazlar, kichik knyazlar, zaysanglar va lamalar.

Bu davrning o'ziga hos tarafi shundaki, bu davrda Xitoy va Rossiya, Qozog'iston va Qirg'izistonning feodal mulklari, O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston bilan iqtisodiy va tashqi siyosiy aloqalar jadal olib borilgan.

Aynan shu narsa juda ko'p tadqiqotchilarni oyrat davlatining XVIII asr birinchi yarmi davriga qiziqtirdi va juda ko'p ilmiy asarlar, kitoblar, maqolalar yozildi. Lekin shunga qaramay hali juda ko'p manbalar MXR, KXR va Rossiyaning arxivlarida o'rganilmay yotibdi.¹⁰¹

Manbalarining kamligi va tadqiqotga jiddiy yondoshilmaganligi ba'zi bir olimlarning asrlardagi noaniqlik va noto'g'rilikka olib kelgan. Bular qatoriga A.Pozdneev, K.Palmovoy va N.Veselovskiyni asarlarida ham uchramiz. Masalan: K.Palmovoy Sevan-Rabdanni Xitoyini yonini oluvchi deb, N.Veselovskiy esa uni nafaqat butun Mug'uliyani balki butun Xitoyini ham bosib olmoqchiligini yozib o'tgan, bu esa manbalarga to'g'ri kelmaydi.

Shunga qaramay Jung'or xonligi bo'yicha Sibir, Qozog'iston, Kalmikiya, O'rta Osiyo, Rossiyada juda ko'plab asarlar yaratilgan bo'lib, ularda xonlikni Sharq bilan bo'lgan ko'plab aloqalari yoritilgan. Bu asarlardan bir qismi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida nashr ettirilgan bo'lib, hech qanday mustaqil fikr, tadqiqotga ega bo'lmagan, shu vaqtda nashr qilingan yana bir qism asarlar esa o'zining mustaqil, tarixan to'g'ri, mamlakat tarixini yaqqol ochib beruvchi ma'lumotlari bilan biznimamnun etadi. Juda ko'p asarlar faqatgina rus manbalaridan foydalangan holda yozilgan, shuning uchun asar faqatgina Jung'or – Rus aloqalarini qamrab olib, xonlikning ichki tarixi chetda qolib ketgan¹⁰².

Chet el adabiyotlaridan M.Kuranning Markaziy Osiyoning XVII-XVIII asrlaridagi muammolariga bag'ishlangan asarini, G.Kaznaning Pyotr I davridagi

¹⁰¹ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 5. Внутренняя и внешняя политика Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

¹⁰² Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 5. Внутренняя и внешняя политика Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

xitoy-rus munosabatlariga bag'ishlangan asarini aytib o'tishimiz mumkin. M.Kuran ikki xil qarashni, ya'ni oyratlar va manjurlarni, bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Uning ta'kidlashicha oyratlarning ham, manjurlarning maqsadi ham boshqa davlat hisobidan o'z davlatini tuzish bo'lgan. Bu qarama-qarshilikni u o'z kitobini boshidayoq ma'lum qilgan va quyidagicha nomlagan: "Qalmiqlar imperiyasimi yoki manjurlarnikimi ? ". Barcha fikrlarni faqatgina shu muammoga, qarama-qarshilikka qaratib u o'z asarini juda ham soda qilib qo'ygan, bu bilan u o'z kitobini ilmiy qadrini past qilib qo'ygan. G.Kazna bo'lsa Jung'or xonligini XVII oxiri - XVIII asrning uchinchi o'n yilligida Xitoy va Rossiya o'rtasidagi hokimyat uchun kurashga maydoniga aylantirib qo'ygan.

Bu ikki asar bizga xonlikning ichki va tashqi siyosati haqida bizga hech qanday yordam bera olmaydi.

Jung'or xonligini XVII asr oxiri – XVIII asr boshidagi tarixini o'rganishdagi bizning asosiy manbamiz bu ЦГАДА va АБПФ fondlaridagi materiallardir. Bu materiallarda katta miqdorda Jung'or xonligining tashqi siyosatidagi faktlar keltirilib, ichki munosabatlar haqida birmuncha kamroq ma'lumotlar berilgan. Bu materiallar haqiqiy nusxalardan iborat bo'lib, rus elchilari Savva Vladislavovich Raguzinskiy, Lorenca Langa, Maksim Etigerov, Leontiy Ugrimov va boshqalarnig Xitoy yoki Jung'oriyaga borganda yozib olgan ma'lumotlaridandir. Ba'zida Jun'gor xonlarining rus podshosiga yozgan maktubining original nusxasi ham uchraydi¹⁰³.

Hamma adabiyotlarni aniq deb bo'lmaydi, shuning uchun biz haqiqiy manba materiallariga tayanib yozamiz.

1688 yilda Xalxa chegaralariga bo'layatgan muammoni hal qilish vaqtda Galdan deyarli Jung'or xonligini hududidan ajralib qoldi va bu hududga boshqa hech qachon qadam qo'ya olmadi. Xonlik taxti bir tarafda bo'sh qolib ketgandi. Bu

¹⁰³ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 5. Внутренняя и внешняя политика Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

holatda Sevan-Rabdan taxtni hech qashiliksiz egallab oldi¹⁰⁴. Ba'zi malumotlarda amaliy hokimiyati 1689 yildan deb beriladi.¹⁰⁵

Qaysi vaqtdan Rabdanni Jung'or xonligining xoni deb hissoblash mumkin? Amalda u Galdan xonligi vaqtidayoq hokimiyatni qo'lga olgandi, lekin tashqi dunyo uni faqatgina Galdanning vafotidan so'ng tan oldi. Galdan 1697 yil 13 mart kuni, Acha-Amtatay degan joyda kasallikdan (rasmiy xitoy manbalari "u o'zini zahar ichib o'ldirgan" deb xabar beradi) favot etadi¹⁰⁶.

Shu bilan 1697 yilda Rabdanning qonuniy hukmronligining boshlanishi deb hissoblasak bo'ladi.¹⁰⁷

Bizga Rabdanning qonuniy xon bo'lgungacha ko'rsatgan faoliyati deyarli ma'lum emas. Rabdan xonlik taxtiga o'tirgandan keyin 17 yil davom etgan urushda g'alaba qozongan Sin imperiyasi unga ta'sirini o'tkazishga harakat qilgan. Rabdandan Galdanning kuydirilgan tanasini va qizini Pekinga yuborishni talab qilishgan. Manbada yozilishicha Rabdanga "Galdanning tanasini hech qanday bahonasiz yuborish, agarda yubormasa, uning karvonlari va elchilari qabul qilinmasligi"¹⁰⁸ qabilidagi qaror yuborishadi. Rabdan iloji boricha bahonalar topib Galdanning tanasini bermaslikka harakat qiladi lekin Sin imperatori Syuan Ye tinmay talab qilavergandan keyin 1698 yili sentyabrda uning tanasini Pekinga yuborishga majbur bo'ladi. Syuan Ye (Kan Si) ning buyrug'i bilan Galdanning tanasi barcha shaharlar darvozalarida osib qo'yib namoyish etiladi.¹⁰⁹

¹⁰⁴ Там же.

¹⁰⁵ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер.

¹⁰⁶ Там же. См. такжеБобров Л.А. Вооружение и тактика восточных и западных монголов в эпоху позднего средневековья (17 в.). Сайт "Сибирская Заимка". 1998-2005. Стр. 1-11. См.такжеЗлаткин И.Я. История Джунгарского ханства. М.: Наука,1983. Стр. 170-190. См.такжеГуревич Б.П. Международные отношения в Центральной Азии в 17-первой половине 19 в. М.: Наука, 1979. Стр. 51-55. См.такжеМитиров Андрей. Галдан Грозный. Бумбин орн. ИАРК. Элиста, 2006, 19 июля. Стр.. 3-4.

¹⁰⁷ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука,1983. Глава 5. Внутренняя и внешняя политика Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии. См. такжеЧерненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер.

¹⁰⁸ Там же.

¹⁰⁹ Там же. См.такжеЧерненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер.

Galdanni qizini esa yana o'sha Xitoy imperatori qistovi bilan faqatgina 1699 yil yozida yuboradi, Sin imperatori uni manjur zodagonlaridan biriga turmushga berib yuboradi.¹¹⁰

Rabdan jung'or xoni sifatidagi birinchi chiqishi bu qozoq xoni Tauke ga qarshi boshlagan urushi edi. 1698 yil bahorida u Syuan Ye ga quyidagi mazmundagi maktub yo'llaydi: "biz Tauke ga qarshi urushni o'z hohishimiz bilan emas majburiyat tufayli boshladik. Bunga sabab Taukening bo'y sunishdan bosh tortishi. U Galdan davrida asir olingan va dalay-lama Lxasuga sovg'a qilingan o'g'lini qaytarishni so'radi va evaziga bo'yin egishini aytdi. Man o'g'lini qaytarib, 500 nafar qo'riqchi va elchim Urxedey-Batur-taydji boshchiligida uning huzuriga yubordim, lekin u barcha odamlarimni kallasini oldi. Bundan tashqari Taukening odamlari Volga bo'yidan kelayotgan karvonimga hujum qilishdi, karvonda mening, Sevan-Rabdanning kelini, Ayuk-xoning qizi bor edi. Yana u Rusdan qaytayotgan mening savdogarlarimni taladi. Bularning barchasi tufayli man o'z qoshinim bilan uni bo'y sundurishga otlandim. Buni mening urushga bo'lgan tashnaligim deb hissoblamaysiz deb o'ylayman."¹¹¹

Natijada 1698 yilda oyrat va qozoq feodallari o'rtasida yangi urush boshlanib ketdi. Endi bu oddiy talon tarojlik urushi emas, balki qozoq feodallarini bosib olishga qaratilgan shiddatli janglar edi. Rabdan 1711-1712, 1714, 1717, 1723 va 1725 yillarda qozoq feodallariga qaqshatqich zarbalar berdi va o'zi bir necha kuchli hujumlarni qaytarishga majbur bo'ldi.¹¹²

Rabdanni Sin imperiyasiga vassal bo'lgan desak ham noto'g'ri bo'ladi, u barcha ishlarni o'zi hal qilar edi. Ammo uning Sin imperatoriga qozoqlarga yurishini tushuntirishga uringan maktubi, bu paytda Jung'or xonligi Galdanning mag'lubiyatidan ancha jabr ko'rgani, ko'plab askarlarini, oziq-ovqati va chorvasini

¹¹⁰ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 5. Внутренняя и внешняя политика Джунгарского ханства. Стр. 312

¹¹¹ Там же.

¹¹² Там же. См. также Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер. См. также Моисеев В.А. Джунгарское ханство и казахи (17-18 вв.). Алма-Ата: Гылым, 1991. Стр. 62-65.

yo'qotganini va Sin imperatoriga yaqinlashish siyosatini olib borgan desak yanglishmagan bo'lamiz.

Rabdanni ko'pchilik qabilalar qo'llab-quvvatlashsada, o'zini ichki urushdan to'la ozod his qila olmasdi. Chunki Rabdanga raqib bo'lgan Gushi-xonning avlodlari Kukunor qal'asiga joylashib, ajralib olishgan.

Galdanning mag'lubiyati va o'limi jung'oriyani qiyin avolga solib qo'ygan, Rabdanning mavq'eyi hali mustahkamlanmagan vaqtda, ya'ni XVIII asrning 15-20 yillarida Rossiya bundan foydalanib Irtish bo'ylarini, Yenisey o'rta oqimlarini egallab olishdi va u yerdan oyratlarni siqib chiqarishdi.¹¹³

Shunday qilib XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida Jung'or xolnligi kuchsizlanib qoldi. Bundan foydalangan qozoq feodallari, Rossiya va Sin imperiyasi xonlikning ko'p hududlarini egallab olishdi.

Rabdan o'zini hukmronligining ilk 12-15 yillarida Rossiya va Sin imperiyasiga o'zini tinchliksevar qilib ko'rsatish va shu yo'l bilan urushlarni oldini olishga harakat qildi.¹¹⁴ Rabdan oldida Rossiya bilan chegaramuammosi turar edi. Cherepanovlar qo'lyozmasida yozilishicha, Rabdan 1701 yilning 24 yanvarida Abdul-Erke-zaysan boshchiligida, Tobolskdan Moskvaga "qirg'izlar" masalasida elchilarni yubordi. Ikki yildan so'ng, 1703 yilning 10 yanvarida Abdul-Erke-zaysan Moskvadan Tobolskga qaytib keldi. Shundan so'ng Rabdan Janubiy Sibirga katta qo'shin yuborib, hamma qirg'izlarni Issiqko'l atrofiga ko'chirib yubordi.¹¹⁵

Sin imperiyasiga nisbatan ham Rabdan do'stona aloqalarni ushlab turishga harakat qildi. Pekin Rabdanga juda ko'p marta elchilar yuborgan va Xalxa, Ichki Mug'uliya, Kukunor knyazlari kabi Sin imperiyasi tan olishni va vassalligiga kirishni so'rashgan. 1703 yilda kelgan Sin imperiyasi elchisi Boochju Rabdanga shunday degan : "Ularning hammasi o'z xalqini boshqarishmoqda, o'z yerlarida erkin yashashmoqda, o'zlarini hukmdorlik maqomlarini saqlab qolishdi. Sizni

¹¹³ Там же.

¹¹⁴ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 5. Внутренняя и внешняя политика Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

¹¹⁵ Там же.

ulardan nima kamingiz bor? Lekin ularni hammasi buyuk hukmdor boshchiligida va ularni qaramog'ida farovon yashashmoqda.” Ammo Sin imperatori Syuan Ye Rabdanni bo'yin egishga va Sin imperiyasini tan olishga majbur qila olmadi. Rabdan doimo uni hurmat qilishini aytib, aloqalar chigallashishidan qochib, doimo o'zining bosh maqsadi – xonlikni va o'zini mavqe'yini mustahkamlashga intilardi.¹¹⁶

Bunday siyosat Pekinda e'tiborsiz qolmadi. 1703 yilda Sin imperatori Syuan Ye o'z maslahatchilariga shunday degan : “Avvallari Sevan-Rabdan o'z maktublarida sodiqlikni izhor qilardi, keyin Galdanni yengilishi va xasaklar ustidan g'alaba qozonib ko'p asir olganda so'ng oz-oz o'zgarishni boshladi. Endi esa, torgoutlarni (ya'ni Sanjibdagi qalmlarni) bo'y sundurgandan keyin bo'ysunmas bo'lib ketyapti ”.¹¹⁷

Endilikda Sevan-Rabdan Sin imperiyasidan Galdan mag'lubiyatidan keyin yo'qotilgan yerlarni talab qila boshladi. U Ili dan Kamagacha va Kemchik yerlari qadimdan jung'orlarga tegishli bo'lgani va uni qaytarish kerakligini talab qildi. Hududiy kelishmovchilik Jung'or xonligi va Sin imperiyasi o'rtasida urush boshlanishiga asosiy sababchi bo'ldi.¹¹⁸

1712 yilda Jung'or xonligida hosil yaxshi bo'lmadi, natijada Sevan-Rabdan hukmronligi davrigidagi eng yirik “ocharchilik” davrlaridan biri bo'lib o'tdi. Sababini qozoqlar bilan bo'lgan tinimsiz urushlar deb izohlanadi.¹¹⁹

1716 yilda oyratlar tomonidan Irtish bo'ylarida polkovnik I.Buxgol'sning ekspedik otryadi yanchib tashlandi va shved serjant-artilleristi Yuxan-Gustav Renat (yashagan yillari 1682-1744) tutib olindi. U Rossiya chegaralarida Poltava jangida asir tushgandan beri yurardi. Renat oyratlarning orasida 17 yil davomida yashadi va Sevan-Rabdan hamda Galdan-Serenning “Arximediga” aylandi. Renat tomonidan artilleriya, qurolsozlik, konlar qurildi. Renatning faoliyati va boshqa rus

¹¹⁶ Там же.

¹¹⁷ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука,1983. Глава 5. Внутренняя и внешняя политика Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

¹¹⁸ Там же.

¹¹⁹ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер. См.такжеМоисеев В.А. Джунгарское ханство и казахи (17-18 вв.). Алма-Ата: Гылым,1991.

va shved asirlaring hizmati natijasida Jung'or xonligida harbiy qurollar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, xonlikning harbiy qudrati oshdi.¹²⁰

1708-1735 yillarda Jung'or xonligi va qozoqlar o'rtasidagi "yettinchi" eng uzoq davom etgan urush (27 yil avom etgan). Urushni uch katta bosqichga bo'lsak bo'ladi. Birinchi – 1708-1723 yillarda; ikkinchisi – 1723-1730 yillarda (qozoqlar uchun himoya, oyratlar uchun bosqinchilik urushi); 1730-1735 yillarda. Sevan-Rabdan davriga birinchi va qisman ikkinchi bosqichlar kiradi. 1708 yil – jung'orlarning Katta juzga hujumi; 1709-1716 yillar – chegara janglari (1710 yilgi Qorakumdagi qurultoyda Bogembay-batir boshchiligida Birinchi umumqozoq birlashmasi tuzildi); 1717-1718 yillar – Ayaguz va Aris daryolari bo'yidagi asosiy janglar (qozoqlarning mag'lubiyatiga sarkardalarning kelishmovchiligi va oyratlarning kuchli qo'shini sabab bo'ldi); 1723 yil – jung'orlarning Katta va O'rta Juzga to'satdan "yeti yo'nalshda" hujumi; qozoqlar Toshkent, Sayram, Turkistonni qo'ldan boy berishdi; oyratlar tasiri ostiga Xodjakent, Samarqand, Andijonning o'zbek aholisi ham tushib qoldi; 1724 yilda – Kichik Juzning xoni Abulxayr Turkistonni qaytarib oldi; 1725 yilda – jung'orlar tomonidan qoraqalpoqlarni yakson qilinishi; 1726 yila – Ordabasdag qurultoyda Abulxayrxon boshchiligidagi Ikkinchi umumqozoq birlashmaini tuzishdi.¹²¹

1715-1723 yillarda Ikkinchi oyrat-sin urushi. Sabab: Sevan-Rabdanning o'z qo'shini bilan Xamiyskiy vohasiga kirishi. 1715 yilda – jung'orlar Xamini egallay olishmadi; 1716 yilda – sinlar Barkulnni egallashdi; 1717-1720 yillarda – Tibet uchun kurash; 1717 yilda – Seren-Dondob To'ng'ich Tibetga hujum qildi va Lxasuni taladi; 1719 yilda – oyratlar Tibetga kirgan sin qo'shinlarini yanchib tashladilar; 1720 yilda – sinning ko'p sonly qo'shini oyratlarni Tibetdan

¹²⁰ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер. См.такжеЕсмагамбетов К.Л. Что писали о нас на Западе. Алма-Ата: Казак университети, 1992. Стр.. 27. См.такжеМагауин Мухтар. Азбука казахской истории: документальное повествование. Алматы: Казакстан, 1997. Стр.. 98. См.такжеМеждународные отношения в Центральной Азии. 17-18 вв. Документы и материалы. Книга 1. М.: Наука, 1989. Стр.. 361.

¹²¹ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер. См.такжеИстория Казахстана (с древнейших времен до наших дней) в 5-ти томах.Том 3. Казахстан в Новое время. Алматы: Атамур, 2000. Стр. 121-139. См.такжеКушкumbaев А. Военное дело казахов в 17-18 веках. Алматы: Дайк-Пресс, 2001. Стр. 127-128.

chekinishga sabab bo'ldi. 1720-1721 yillarda – sin qo'shinlari Tibetda muvaffaqiyatga erishib, yurushlarini davom ettirishdi va Sharqiy Turkistonga hujum qilib Turfan va Urumchini egallashdi (jung'orlar tez orada yana qaytib olishdi); 20.12.1722 yilda Sin imperatori Kansi vafot edi, o'rniga o'g'li Yun Chjen keldi va mamlakatdagi ahvolni ko'rib Sevan-Rabdan bilan tinchlik shartnomasi tuzdi. Tibet sinlarga o'tib ketdi. 1723-1724 yillarda Kukunorda oyratlar hukmronligi tugatildi.¹²²

Qisqacha xulosa qilib aytganda, Galdanning vafoti va Jung'or xonligining Singa bir qancha vaqt bo'yin egishiga majbur qildi. Ammo aqlli va dono Sevan-Rabdanning olib borgan siyosati bu holatdan oqilona chiqib ketishi va keyinchalik esa Sinlar tomonidan olib qo'yilgan hududlarni qaytarib olishiga sabab bo'ldi. Sevan-Rabdan asirga tushgan shved asirlaridan oqilona foydalandi, ular yordamida ko'plab qurolxonalar qurildi. Uning ishini uning o'g'li Galdan-Seren davom ettirdi.

¹²² Там же. См. также Международные отношения в Центральной Азии. 17-18 вв. Документы и материалы. Книга 1. М.: Наука, 1989. Стр. 349.

2.2. Jung'or xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti

Ko'chmanchilarning ijtimoiy-siyosiy tuzumining evolyutsiyasi juda kam o'rganilgan qismlardan biri hissoylanadi. Bu holatni olimlarimiz manbalar yetishmasligi va ko'chmanchi xalqlar manba yozishga o'rganmaganligida deb izohlashadi. Shunga qaramay ba'zi olimlar bunday tadqiqot ishlarini olib borib ko'plab ma'lumotlar yig'ganligini ta'kidlab o'tishimiz joiz. Masalan mashhur B.Vlamidirtsovning ishlari, A. Pozdneeva, G.Grum-Grijimaylo, N.Veselovskiy, V.Radlov, V.Grigoryeva, V.Bartold o'z ishlarida ko'chmanchi xalqlarining ijtimoiy-siyosiy tuzumini tasvirlab berishgan. Lekin biroz noto'g'ri ma'lumot bilan yondoshgan tadqiqotchilarni ham uchratishimiz mumkin, ulardan biri S.Tolibekov bo'lib, uning ishlari tarixiy faktlarga to'g'ri kelmaydi.

Ko'chmanchilar ijtimoiy-siyosiy tuzumi o'troq aholinikidan ancha farq qilgan buni V.Radlov ham quyidagicha yozib o'tgan: "Knyaz, zodagon, xalq, davlat, hudud, mulk kabi tushunchalar ko'chmanchilarda o'troq aholiga qaraganda boshqa ma'noda keladi. Shu bilan bir qatorda urush va tinchlik ko'chmanchilar hayotiga o'troq aholiga ta'sir qilganchalik ta'sir qilmaydi.¹²³"

Mug'ul, xitoy va rus manbalarining ma'lumotlariga ko'ra XVII-XVIII asrlarda Mug'uliyadagi feodal mulklarning har birini ma'lum bir hududi bo'lib unda o'sha hudud hukmdori aholisi istiqomat qilgan. Bu hudud chegaralari urush vaqtida o'zgarib turgan. Lekin har bir mulk chegarasi aniq belgilangan bo'lib, uni buzish urushning boshlanishiga teng bo'lgan. 1640 yilda Erdeni-Batur Tarbag'atoyda umummo'g'ul s'yezdini o'tkazadi.¹²⁴ Natijada "Ix Tsaaz" ("Степное уложение") ya'ni cho'l qonunlari – "... u oyna kabi mug'ul xalqlarining huquqlari, urf-odatlar, fikrlash tizimi, yashash tarzini..., yaqqol

¹²³ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 5. Общественный и политический Стр.ой Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

¹²⁴ Очерки истории Калмыцкой АССР. Дооктябрьский период. Издательство «Наука», Москва, 1967. (электронная версия Сайт Истории Калмыкии)

ko'rsatib bergan¹²⁵ "qabul qilinadi"¹²⁶. Bunga qonunga ko'ra hududni buzgan kimsaga qattiq sanksiyalar qo'llanishi haqida yozib o'tgan.

Ko'chmanchi xalqlarda "hudud torligi" tushunchasi bo'lib, unda xalq ma'lum bir hududga sig'may qolgan, bu aholini ko'pligi bilan emas balki chorvaning miqdori va yerning unumdoriligi bilan o'lchangan. Manbalarda XVII-XVIII asrlardagi mug'ullar o'rtasidagi yerning torligi va yer uchun bo'lib o'tgan ko'plab urushlar haqida ma'lumotlar bor.

Feodal mulk boshida xon yoki knyaz turgan va bu avloddan avlodga otadan bolaga o'tib kelgan. U otadan-bolaga umchi, ya'ni o'sha omokning hususiy mulki sifatida o'tgan. Har bir knyaz o'z mulkini har joyda himoya qilgan va uning nomidan ish olib borgan. Agar kim uning hukmdorligini tan olmasa bu urush degan ma'noni anglatgan va bu endi faqatgina qurol kuchi bilan hal qilish mumkin bo'lgan xolos.

Umchi o'z navbatida 2 qismga : ulus va nutugga¹²⁷ bo'lingan¹²⁸. Ma'lumki bunday 2 qismga bo'linish Mug'uliyada XII-XIII asrlarda ham bo'lgan. B.Vladimirtsov - "Udel-xubi ikki qismdan: ulus va nutugdan tashkil topgan",-deb yozadi. Bundan ko'rinib turibdiki feodalizm davrida Mug'uliyadagi feodal mulkchilik tizimi o'zgarishsiz qolgan.

"Ulus" deganda biz xalqni tushunamiz va bu so'zni ma'nosiga to'xtalmaymiz. Ikkinchisi "nutug" bo'lib, B.Vladimirtsov unga quyidagicha t'arif beradi: "biror-bir ijtimoiy birlashma ko'chmanchilik qilib hayot kechirishi mumkin bo'lgan hudud, u mo'g'ulchada *nuntux-nutug*, turkiyda *yurt* deb atalgan. "

V.Bakuninning "Описании калмыцких народов" asarida aytilishicha, knyazlarga mavsumiy chorvachilik yerlarini bo'lib berishda maxsus bir tashkilot

¹²⁵ Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер. См.такжеБичурин Н.Я. (Иакинф) Историческое обозрение ойратов или калмыков с 15 столетия до настоящего времени. СПб.,1834. Стр. 281

¹²⁶ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука,1983. Глава 5. Общественный и политический Стр.ой Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии. См.такжеЧерненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана:правители Джунгарского ханства в 17-18 веках. "Центральноазиатский исторический сервер.

¹²⁷ Очерки истории Калмыцкой АССР. Дооктябрьский период. Издательство «Наука», Москва, 1967. (электронная версия Сайт История Калмыкии)

¹²⁸ Там же.

bo'lib, u “*zargo*” deb atalgan va kengashga o'xshab ketgan. Uning 8 ta doimiy a'zosi bo'lib, u xon tomonidan o'z yaqinlari, qarindoshlari va qabila oqsoqollari orasidan tayinlangan. V.Bakuning yozishicha “Zargoda har bir ulusdan vakil ishtirokida, qaysi noyon o'z ulusi bilan qaysi hududda qishlashi va yozlashi haqida kelishib olishadi.”¹²⁹,

Ulusdagi guruhlar va oilalar o'rtasida yerning qay tarzda bo'lib olinishi to'g'risida, Kalmikiyada ko'chish tizimini shaxsan kuzatgan P.Pallas quyidagicha aytib o'tadi: “agar ulus yangi yerlarga ko'chmoqchi bo'lsa u avval xon yoki knyazga, keyin lamaga chopar yuborgan va ijozat olgan, keyin xalq usha hududlarga ko'chib ketgan.”¹³⁰ Mulkning eng katta egasi albatta xon bo'lgan, u o'zi va oliy lamaga atab eng yaxshi va unumdor yerlarni olgan, qolganlarini knyazlariga bo'lib bergan, knyazlar ham o'z navbatida unumdor yerlarni o'zlariga olib qolib, qolgan hududlarni zodagonlarga bo'lib berganlar.

Ancha keyingi davrlarda XIX asr oxiri XX asr boshlarida Mug'uliyaga sayohat qilgan va mug'ul xalqi hayotini o'rgangan A.Pozdneev quyidagicha yozib o'tadi: “xohlagan bitta yurtaga kirsangiz, har bir mug'ul sizdan kimga tegishli yerdansan-deb albatta so'raydi”. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ko'chmanchilarda yerni sotish va ijaraga berish judayam keng tarqaldi.

Shuni aytib o'tish kerakki feodalizm davrida barcha mulklar monopoliya tarzida xonlar va knyazlarga tegishli bo'lgan, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida burjuaziyaga duch kelib, endi yerlar sotilar va ijaraga berilar edi.¹³¹

Bunday yer egalik tarzi deyarli hamma mug'ul davlatlari hududida, shu bilan birga Jung'or xonligida ham bo'lgan.

Oyratlarda barcha mug'ullardagi kabi xalq ikki tabaqaga bo'lingan: - feodallar va oddiy chorvador xalq – **aratlarga** bo'lingan.

¹²⁹ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 5. Общественный и политический Стр.ой Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

¹³⁰ Там же.

¹³¹ Там же.

Ishlab chiqaruvchi va mehnat qiluvchi tabaqa esa – **aratlar** bo'lgan. Bu tabaqa ikki turga bo'lingan: **albatu** – knyazlar va boylar qo'lida ishlovchilar va **shabinarlar** – cherkov mulkida ishlovchilar. Aratlar oytratlar va Jung'oriyadagi asosiy kuch bo'lib, chorvachilikda, yirik va mayda shoxli hayvonlarni ko'paytirishda va barcha boshqa ishlarni bajarishda foydalanilgan. Aratlarni juda katta hajmdagi ishni bajarishiga qaramay jamiyatda hech qanday huquqlarga ega bo'lishmagan. P.Pallasning yozishicha: “Taydji, yoki noyon o'zining hizmatkorlari uztidan cheklanmagan hokimyatga ega bo'lgan. Agar hohlasa ularni biror kimga sovg'a qilgan, jazolagan, quloq yoki burnini kestirgan, faqatgina o'ldirmagan xolos.¹³²” Aratlarning davlat oldidagi eng katta burchi bu urushga boorish edi. “Mo'g'ul xalqlarida har bir oddiy fuqaro yoki qora ishchi (xara-keen) askar hissoblanib, ular har doim otlari va qurollarini tayyor holda tutishlari, agar urush boshlanib knyaz yoki noyon chaqirsa tezlik bilan aytilgan joyga yetib borishlari shart bo'lgan.”

Jung'oriyada aratlarning qulligi hech qaysi qonun bilan belgilanmagan. Biz faqat 1640 yilgi qonunlarda va Galdan-Boshoktu-xonning bir necha qarorlarida aratlarning ho'jayin buyurgan ishlarni so'zsiz bajarishlarini tayinlab yozilaganini ko'rishimiz mumkin. Aratlar krepostnoylarga o'xshab ho'jayinlariga bog'lab qo'yilgan. Ular o'zboshimchlik bilan qochib ketishi taqiqlangan. Qochgan arat juda qattiq jazolangan. Qochqin aratni berkitib o'tirgan knyaz ham jazolanishi belgilab qo'yilgan. 1640 yilgi qonunlarga ko'ra qochqin aratni berkitgan kimsaga, odam o'ldirganlikdan ham qattiq jazo berilgan; aybdor 100 pantsir, 100 ta tuya va 1000 ta ot miqdorida jarima to'lashi kerak bo'lgan.

Jung'oriyadagi aratlarning ikkinchi toifasi shabinarlar bo'lgan. Bu tabaqa lamaizmning g'alabasi va cherkov feodallari paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Lekin shabinarlar (“shabi” so'zidan – “shogird”, “tinglovchi”) yuqori lamlarning ishchilari bo'lishgan va ularga hizmat qilishgan. Ammo shabinarlar knyazlarga yoki feodal davlatga bo'lgan hamma majburiyatlardan ozod qilinganlar. Ular hatto

¹³² Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 5. Общественный и политический Стр.ой Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

harbiy xizmatdan ozod qilinganlar va majburiy ishlarga jalb qilinmaganlar. Ular avloddan avlodga cherkov feodallariga xizmat qilib o'tishgan. Ularni ishi albatularnikiga o'xshashib ketgan. Lekin ularning sudlari ham alohida bo'lib, ular cherkov sudi oldida javob berishgan.¹³³

Yana bir narsa diqqatga sazovorki, Jung'oriya va Kalmikiyada Xalxa va Janubiy Mug'ulistondan farqli o'laroq *xamjilg'a* (hamjaanai ail) atamasi bo'lmagan. Ma'lumki bu atama Xalxa va Janubiy Mug'uliyada ham Sin imperiyasiga qo'shib olinmagunga qadar bo'lmagan. Bu atamaning paydo bo'lishiga sin hukmdorlarini mug'ul qo'shinini tuzishda aniqlik kiritish uchun topishgani, qo'shin tarkibidan harbiy xizmatdan ozod qilingan dvoryanlari (*xamjilg'a*), shabinarlarni va darxonlarni ajratib olish uchun ishlatilgani ma'lum bo'ldi.¹³⁴

Darxonlar o'rta tabaqa bo'lib, ular asosan aratlardan kelib chiqqan va ma'lum bir xizmatlari uchun mukofot sifatida ozod qilingan, kichik mulk berilgan va bir qancha huquqlarga ega bo'lgan. Abulg'ozi Bahodirni yozishicha: "tarxon bu – soliq to'lashdan ozod qilingan shaxsdir; qachonki u xonni oldiga kelganda, uning yo'lini hech kim to'sa olmaydi; u hohlaganda kiradi va hohlaganda chiqadi. Agar u biror jinoyat qilsa 9 martagacha javobgarlikka tortilmaydi, 9 tadan oshsa tortiladi. Bu huquq uning 9 chi avlodigacha o'tib boradi."¹³⁵ Darxonlar Jung'oriya unchalik ko'p bo'lmagan va oyratlarning ijtimoiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan.

Oyrat jamiyatida feodallar va aratlar tabaqasidan tashqari yana qullar ham bo'lgan. Shuni aytib o'tish kerakki, XVII-XVIII asrdagi manbalarda qullar juda kam tilga olingan va ular haqida juda kam ma'lumot qoldirilgan. Bu bizga oyratlarda qul hizmati sezilarli rol o'ynamagan deb hissoblashga asos bo'la oladi. Manbalarda kelgan ba'zi ma'lumotlarda qullar asosan urushda asir tushganlardandir, mahalliy oyratlardan qul bo'lgani haqida deyarli hech qanday ma'lumot yo'q. Jung'oriyada qullar tovar hissoblanib, rus savdogarlari va

¹³³ Там же.

¹³⁴ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 5. Общественный и политический Стр.ой Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

¹³⁵ Там же.

zodagonlariga sotilgan. Lekin hamma asirlar ham qulga aylantirilmagan. Xonlikda asirlar qadrlangan va o'zlarini odamlarini qullikdan ozod qilish uchun foydalanilgan.

Bu vaqtda Jung'or xonligining aholisi qancha bo'lgan? N.Bichurin XIX asrning 20 –yillarida chop etilgan “ Синь цзян чжи ляо ” («Описание Синьцзяна»)ga tayangan holda, XVIII asrda o'rtalarida Jung'oriya aholisi 200 ming kibitok (ya'ni oila), 600 ming odam deb beradi.¹³⁶

Jung'or xoni davlatni avval aytib o'tganimiz, zargo orqali boshqargan. Zargoga xizmat qilish uxhun yonida doimo xattotlar bo'lgan. Zargoning xonasida doimo 1640 yilda, oq matoga yozilgan, qonun turgan. Zargoning 8 ta a'zolari tusalagchi va zagachi deb nomlangan, ya'ni maslahatchi, yordamchi va sudya, hammalari birgalikda – sayt deb nomlanishgan, ya'ni ministr.¹³⁷

Xon tomonidan chiqarilgan barcha farmonlar, tushgan arizalar zargoda saqlangan va oq varoqqa ko'chirilib eng yuqori zargada saqalanadigan muhr qo'yilgan. Zargo sudni jinoyatning og'ir – yengilligiga qarab olib brogan. Agar zargalar fikrlari o'rtasida moslik bo'lmay qolsa, muhokama uchun xonga berishgan. Biz har bir zarga qanday ish qilganligini aytib bera olmaymiz, lekin Ugrimovaning ma'lumotidan kelib chiqib ulardan biri g'aznachilikka javobgar bo'lganini bilamiz.

Sevan-Rabdan va Galdan-Serenning hukmronlik yillarida Jung'or xonligi Sharqiy va Markaziy Osiyoda muhim rol o'ynagan. Davlat markaziy hokimiyarga ega, tartibli feodal mamlakatga aylandi va mamlakatdagi knyazlarning separatilik chiqishlarini bostirdi.

Sevan-Rabdan va Galdan-Seren Jung'oriyani oyrat feodallari mamlakati sifatida birlashtirishga, xon hukumati va boshqaruvini kuchaytirishga, ziroatchilik va hunarmandchilikni rivojlantirishga e'tibor berishdi.

Sevan-Rabdan va Galdan-Serenning asosiy maqsadi Xalxani Jung'or xonligiga qo'shib olish va birlashgan mug'ul davlatini Choros urug'I boshchiligida

¹³⁶ Там же.

¹³⁷ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 5. Общественный и политический Стр.ой Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

tuzish edi. Yana bir muhim maqsadi Batur-xuntaydji davridagi mamlakat chegaralarini qayta tiklash edi.

Jung'or xonligi haqiqiy oyrat feodallari davlati edi. Chorva asosiy mahsulot bo'lib, milliy boylik hissoblanardi.

Jung'or xonligida xalq qatlami ahvoli ancha og'ir edi. Aratlar doimiy ravishda qochishga yoki shabinarlar qatlamiga o'tishga harakat qilar va shu bilan bir qancha majburiyatlardan, majburiy harbiy xizmatdan qutulishga intilishardi.

Qisqacha xulosa qilib aytganda Jung'or xonligida mo'g'ullardan qolgan tuzum deyarli o'zgarishsiz qolgan. Urug' yurt va ovullarga bo'lingan, ularni zaysanglar boshqargan. Honadonlar esa "kibitok" deb nomlangan. Mamlakatni xon knyazlar, noyonlar boshqargan. Unumli yerlarning katta qismi xon oilasiga tegishli bo'lgan. Bu vaqtda darhon deb atalgan tabaqa bo'lib, ular bir qancha imtiyozlarga ega bo'lgan, masalan ular o'z yerlari uchun soliq to'lashmagan va ularning to'qqizta gunohi kechirilgan.¹³⁸

Mehnatkash aholi aratlar deb atalgan. Ular ham ikkiga bo'lingan: albatular – knyaz, noyon, zaysang va darhonlarni yerlarida ishlaganlar; ular majburiy xizmatga olib ketilganlar; shabinarlar – ular asosan ibodatxonalar, vaqf mulklarida mehnat qilishgan; ular harbiy xizmatdan ozod etilganlar; hatto ularning sudi ham alohida bo'lgan.¹³⁹

¹³⁸ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Глава 5. Общественный и политический Стр.ой Джунгарского ханства. Сайт об Истории Калмыкии.

¹³⁹ Там же.

Xulosa

Jung'or xonligi tarixi XIV – XVIII asrlardagi Mug'ul xalqlari tarixining ajralmas bir qismidir. Mug'ullardan bir qancha sabablarga ko'ra guruhlar ajralib chiqdi, bunday holatni biz XVII asrning 30 yillarida janubiy mug'ullar va buryatlarni misolida ko'rishimiz mumkin. Ularning ajralishidan keyi Mug'uliya tarkibida faqatgina Xalxa va Jung'or xonligi qoldi, Jung'or xonligining inqirozidan so'ng faqatgina Xalxa Mug'ulistonni tarkibiga kirardi (hozirgi Mongoliya Xalq respublikasi).

Manbalarning habar berishicha feodal munosabatlar o'troq aholida qay darajada rivojlangan bo'lsa ko'chmanchilarda ham shunday kechgan. Ko'rinib turibdiki barcha xalqlar kabi oyratlar ham erta feodalizmdan o'tib, rivojlangan feodalizmga etib kelishgan. Ular hayotida haqiqiy feodal jarayonlar, feodal mulk egaligi va keskin tabaqalanish yuz berdi. Mug'ul xalqlar ichida feodalizm eng rivojlangan hudud bu shubhasiz Jung'or xonligi bo'ldi.¹⁴⁰ Jung'or xonligida feodal munosabatlar shu darajada rivojlandiki, uning keying bosqichi bu o'troq hayotga o'tish edi. Lekin XVIII asrning 50-yillaridagi voqealar bunga yo'l qo'ymadi.

Jung'or xonligining qulashi Markaziy Osiyoda siyosiy vaziyatni butunlay o'zgartirib yubordi. 1758 yilda Jung'oriya, 1759(1760?) yilda Sharqiy Turkistonni egallab Sin imperiyasi Rossiya chegaralarigacha yetib borib qoldi. Ch.Valixonov aytganidek: “Kuchli Jung'or xonligining qulashi va Kichik Buxoro (ya'ni Sharqiy Turkiston) ni egallanishi butun Osiyoda qo'rquv uyg'otdi.” Jung'or xonligining qulashi Rus hukumatini deyarli XVIII asrning 90-yillarigacha sinlarning hujum havfi qo'rqitib keldi.

Lekin Sin imperiyasi boshqa urushlar olib borishga qo'rqdi. Chunki mug'uliyada bo'lib turadigan doimiy qo'zg'olonlar ularni bu yo'ldan qaytarib turardi.

Shunday ulkan va kuchli davlatning bunday ahvolga tushishiga nima sabab bo'ldi? Bu savolga javoblar talaygina. Buning uchun ozgina avvalroqqa qaytsak.

¹⁴⁰ Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука, 1983. Заключение. Сайт об Истории Калмыкии.

Galdanning vafoti va Jung'or xonligining Singa bir qancha vaqt bo'yin egishiga majbur qildi. Ammo aqlli va dono Sevan-Rabdanning olib borgan siyosati bu holatdan oqilona chiqib ketishi va keyinchalik esa Sinlar tomonidan olib qo'yilgan hududlarni qaytarib olishiga sabab bo'ldi. Sevan-Rabdan asirga tushgan shved asirlaridan oqilona foydalandi, ular yordamida ko'plab qurolxonalar qurildi. Uning ishini uning o'g'li Galdan-Seren davom ettirdi. Ammo Galdan-Serenning vafotidan so'ng boslangan toju-taxt kurashi bu inqirozni boshlab berdi. Oyrat knyazlari bir-biri bilan talashib yotganda Rossiya ham, Sin imperiyasi ham, qozoq juzlari ham faqatgina tomoshabin bo'lishdi va qulay fursat keldi deganda xalqni ayovsiz talashdi. Sin imperiyasi bo'lsa anchadan beri yonida doimo havf solayotgan xonlikni yo'qotish payida yurardi. Bu imoniyatni afsuski ularga oyratlarning keyinchalik qahramoni bo'lgan Amursan berdi. Amursan Sin imperiyasi yordamida taxtni egallayman deb o'yladi, aslida esa Sin imperiyasi uning o'zi yordamida o'zining xonligini yanchib tashladi. Qozoqlar har doimgidek bu paytda ham manfaat yo'lini tanlab, kerakli paytda sinlar tarafiga o'tib ketib qolishdi. Rossiya ko'plab oyrat zodaginlari, noyon va zaysanglari hamda oddiy aholini o'z hududiga olgan bo'lsada Jung'or xonligini asrab qolish uchun hech qanday hatti-harakat amalga oshirmadi.

Bu yuqoridagi barcha faktorlar oxirida Jung'or xonligining yakson qilinishi, aholisini esa ayovsiz qirilishiga olib keldi. Shunday qilib 125 (aniqrog'i 122 yil) yilga yaqin yashagan Jung'or xonligidan faqatgina xotiralar qoldi xolos.

Yana bir sabablaridan bir Jung'or xonligining oxirigi yillarida, Batur-xuntaydji, Sevan-Rabdan, Galdan-Seren hukmronligida sodir bo'lgan o'zgarishlar (dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, manufakturani paydo bo'lishi, hokimyatni markazlashtirish va b.) juda kuchsiz bo'lgan va qadimdan davom etayotgan feodalizmga qarshi tura olmadi. Natijada ichki kurashlar boshlanib, davlat kuchsizlandi va sinlarga qarshi turib bera olmadi.

V.V.Bartoldning aytganidek Jung'or xonlarining deyarli barchasi Choros urug'idan kelib chiqqan edi. Bu urug'dan chiqqan Erdene-Batur, Galdan-Boshoktu, Sevan-Rabdan, Galdan-Seren kabi xuntaydjilar XVII-XVIII asrda Markaziy

Osiyoda o'z iqtisodi, boshqaruvi, harbiy salohiyati bo'yicha tengi yo'q hukmdorlardan bo'lishgan.

122 yil ichida Jung'or xonligini 9 ta xon boshqardi. Jung'oriya xonligining paydo bo'lishida Choros urug'ining ro'li katta bo'ldi. Bir necha yillardagi 1654, 1671, 1753, 1755-1756 qo'shhokimyatchilikni hissobga olmasak. Quyida hukmdorlar ro'yhati, ularning o'z va taxtga chiqqanda berilgan ismlari, yashagan yillari va hukmronlik qilgan yillari, qarindosh-urug'chilik aloqalarini ushbu jadvalda berib o'tamiz:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti asarlari:

1.1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q// Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T-7. Toshkent 1999. 135 b.

1.2. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. - Toshkent, O'zbekiston, 1996. T.4. – 88 b.

2. Rossiyada chop etilgan:

2.1. Алтан Тобчи («Золотые сказания»), Лубсан Даздан. Рукопись. Перевод с монгольского, введение, комментарий и приложения Н.П.Шастиной. М.:Наука,1973.

2.2. Бартольд Б.Б. Сочинения том V. М: Наука, 1968. Стр. 538.

2.3. Бичурин Н.Я. (Иакинф) Историческое обозрение ойратов или калмыков с 15 столетия до настоящего времени. СПб.,1834. Стр 281.(электронная книга)

2.4. Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. Л., 1934, с. 109-110 (цитировано по Авляеву, Санчирову, 1984).

2.5. Златкин И.Я. История Джунгарского ханства (1635-1758). М.: Наука,1983. Сайт об Истории Калмыкии. (электронная версия)

2.6. Международные отношения в Центральной Азии. XVII-XVIII вв. Документы и материалы. Книга 1. М.: Наука, 1989. Стр. 361.

2.7. Моисеев В.А. Материалы к родословной джунгарских ханов. (Из показаний в России нойона Норбу-Данжина) // Вопросы археологии и истории Южной Сибири. - Барнаул, 1999. - С.197-200

2.8. Очерки истории Калмыцкой АССР. Дооктябрьский период. Издательство «Наука», Москва, 1967. (электронная версия Сайт История Калмыкии)

2.9. Черненко Вадим. Арынгазин Ризат г. Павлодар (Казахстан), Имена в истории Казахстана: правители Джунгарского ханства в XVII-

XVIII веках. "Центральноазиатский исторический сервер".(электронная версия)

2.10. Хойт (Галушкин) Санжи "Обзор ойратской истории". "Центральноазиатский исторический сервер".(электронная версия)

2.11. Паллас П. С. Путешествие по разным провинциям Российского государства // Россия [XVIII в.](#) глазами иностранцев. — Л.: Лениздат, [1989](#).

2.12. Паллас П. С. Наблюдения, сделанные во время путешествия по южным наместничествам Русского государства / Пер. с нем.; Отв. ред. Б. В. Левшин; Сост. Н. К. Ткачёва. — М.: Наука, [1999](#). — 246 с.

3. Chet elda chop etilgan:

3.1. Авляев Г.О. "К вопросу о происхождении кереитов и их участии в этногенезе средневековых ойратов Джунгарии и калмыков Поволжья".

Статья из книги: Проблемы этногенеза калмыков - Элиста:

Республиканская типография Государственного комитета Калмыцкой АССР по делам издательств, полиграфии и книжной торговли, 1984.

3.2. Авляев Г.О., Санчиров В.П. К вопросу о происхождении торгоутов и хошоутов в этническом составе средневековых ойратов Джунгарии // Проблемы этногенеза калмыков. Элиста, 1984.стр. 44

3.3. Бобров Л.А. Вооружение и тактика восточных и западных монголов в эпоху позднего средневековья (XVII в.). Сайт "Сибирская Заимка". 1998-2005. Стр 1-11.

3.4. Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том 2. Алма-Ата: Главная редакция Казахской советской энциклопедии, 1985. Стр 324.

3.5. Груссе Рене. Империя степей. Атилла, Чингисхан, Тамерлан. Том 2: История Казахстана в западных источниках 12-20 вв. Алматы: Санат, 2005.Стр 291

3.6. Гуревич Б.П. Международные отношения в Центральной Азии в XVII-первой половине XIX в. М.: Наука, 1979.

- 3.7. Едилханова С.А. Казахско-джунгарские взаимоотношения в 17-18 веках (Некоторые историографические аспекты проблемы). Алматы: Дайк-Пресс, 2005.
- 3.8. Екеев Н.В. Чоросы — ойротские князья // Материалы к 50-летию института алтаистики им. С.С. Суразакова. № 10. Горно-Алтайск, 2003. Стр 4 (<http://www.hamagmongol.narod.ru>)
- 3.9. Екеев Н.В. Алтайская этногония (вопросы состава, типологии, этимологии, стратиграфии) // Древности Алтая. Известия лаборатории археологии. - Горно-Алтайск, 2002а. - N8. - С.120-136. (<http://www.hamagmongol.narod.ru>)
- 3.10. Екеев Н.В. Дёрбен-ойраты (к проблеме этимологии и этнической идентификации) // Мир Центральной Азии. - Улан-Удэ, 2002б. - Т.1. - С.124-131. (<http://www.hamagmongol.narod.ru>)
- 3.11. Есмагамбетов К.Л. Что писали о нас на Западе. Алма-Ата: Казак университеті, 1992. Стр. 27.
- 3.12. История Казахстана (с древнейших времен до наших дней) в 5-ти томах. Том 3. Казахстан в Новое время. Алматы: Атамұра, 2000.
- 3.13. Касымбаев Ж.К. Государственные деятели казахских ханств (18 в.). Алматы: Білім, 1999. Стр 100.
- 3.14. КИЛП - Калмыцкие историко-литературные памятники в русском переводе /Составитель А.В.Бадмаев. - Элиста, 1969. .
- 3.15. Кляшторный С.Г. Надпись уйгурского Бёгю-кагана в Северо-Западной Монголии // Центральная Азия: новые памятники письменности и искусства. - М., 1987. - С.19-37
- 3.16. Кушкумбаев А. Военное дело казахов в XVII-XVIII веках. Алматы: Дайк-Пресс, 2001. Стр 127-128.
- 3.17. Левшин А.И. Описание киргиз-казачьих или киргиз-кайсацких орд и степей. Алматы: Санат, 1996.

- 3.18. Митиров Андрей. Галдан Грозный. Бумбин орн. ИАРК. Элиста, 2006, 19 июля. Стр 3-4.
- 3.19. Магауин Мухтар. Азбука казахской истории: документальное повествование. Алматы: Казакстан, 1997. Стр. Магауин Мухтар. Азбука казахской истории: документальное повествование. Алматы: Казакстан, 1997. Стр. 98.
- 3.20. Моисеев В. А. Джунгарское ханство и казахи XVII-XVIII вв. [Текст]: XVII-XVIII вв.- Алма-Ата "Гылым", 1991. (электронная версия)
- 3.21. О монгольском Убаши-хун-тайджи. Бумбин орн. Информационное агенство Республики Калмыкия (ИАРК). Элиста, 2006, 19 июля. Стр 4
- 3.22. Очир А. О происхождении этнических названий монголов, боржигин, хатагин, элжигин и цорос // Монголо-бурятские этнонимы. - Улан-Удэ, 1996. - С.3-8.
- 3.23. Рамстедт Г.И. Этимология имени ойрат // Сборник в честь 70-летия Г.Н.Потанина. - СПб., 1909. - С.550-553.
- 3.24. Сулейменов Р.Б., Моисеев В.А. Аблай-хан: внешняя и внутренняя политика. Алматы: Жазушы, 2001. Стр 50-56.
- 3.25. Эрдниев У.Э. Калмыки. Элиста: Калмыцкое книжное издательство, 1985
- 3.26. [↑](#) *Bergholz F.W.* The partition of the steppe. — p.522
- 3.27. [↑](#) Henry Hoyle Howorth — History of the Mug'uls from the 9th to the 19th Century: Part 1, p.595
- 3.28. Bergmann B. Normandische Streiferein unter Kalmucken in jahren 1802 und 1803. Riga. 1804 (цитировано по Эрдниеву, 1980).
- 3.29. Abel R'emusat. Bechsehes sur les jaques Tartares. Paris, 1820, s. 245-246 (цитировано по Эрдниеву, 1980).
- 3.30. [↑](#) Митиров А.Г. Ойраты-калмыки: века и поколения. — Элиста: Калм. кн. изд-во, 1998. — 384 с.


- 3.31. ↑ Ed. Reuven Amitai-Preiss, David Morgan-The Mug'ul empire and its legacy, p.328
- 3.32. ↑ Автобиография Далай-ламы V, том Kha, лист 107b. II 5-6
- 3.33. ↑ Martha Avery -The Tea Road: China and Russia meet across the Steppe, p.104
- 3.34. Pallas «Merkwürdigkeiten des Morduanen, Kasaken, Kalmücken, Kirgisen, Baschkiren etc.» («Достопримечательности мордвы, казахов, калмыков, киргизов, башкир и др.», Франкфурт и Лейпциг, 1773—1777, в 3 томах) <http://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%B0%D1%88%D0%BA%D0%B8%D1%80%D1%8B>
- 3.35. ↑ Gertraude Roth Li — Manchu: a textbook for reading documents, p.318
- 3.36. ↑ Valikhanov, Ch. Ch. — The Russians in Central Asia, p.169
- 3.37. ↑ Baabar, Christopher Kaplonski, D. Suhjargalmaa — Twentieth century Mug'ulia, p.80

Internet saytlar:

- “ Джунгарское ханство” Материал из Википедии — свободной энциклопедии.
- <http://www.orientalstudies.ru>
- www.Eurasica.ru
- <http://tsahimortoo.freeyellow.com/journal13/20020205.html>
- <http://lcweb2.loc.gov/frd/cs/mntoc.html>
- <http://gumilevica.kulichki.net/HE2/he2512.htm>
- www.kyrgyz.ru/hron/hron_04.shtml
- www.kalmneft.ru/newspapire/arhiv/42/esen-han.htm


- http://www.bio.msu.ru/kafedry/antropo/e/gal_e.htm
- <http://www.ulanzalata.org/history/istoria.html>

Личное имя	Годы жизни	Тронное имя	Годы правления	Родство	Династия
Хого-Хоцин	?-1653(1665?)	Эрдэни-Батур-хунтайджи	1635-1653	Сын Хара-Хулы	Чорос
Сэнгэ	1638(1630?)-1670	Цэцэн-хунтайджи	1654-1670	Сын Эрдэни-Батура	Чорос
Галдан	1645-1697	Бошокту-хан	1671-1697	Сын Эрдэни-Батура	Чорос
Цэван-Рабдан	1663-1727	Эрдэни- Дзориغتү-хунтайджи	1697-1727	Сын Сэнгэ	Чорос
Галдан-Цэрэн	1693(?)-1745	Эрдэни-Батур-хунтайджи	1727-1745	Сын Цэван-Рабдана	Чорос
Цэван-Дорджи	1733-1750	Аджа-Намджил-хан	1745-1750	Сын Галдан-Цэрэна	Чорос
Лама-Дорджи	1726-1753	Эрдэни-Лама-Батур-хунтайджи	1750-1753	Сын Галдан-Цэрэна	Чорос
Даваци	1732-1759	нет	1753-1755	Праправнук Эрдэни-Батура.	Чорос
Амурсана	1722-1757	нет	1755-1757	Праправнук Эрдэни-Батура.	Хойт



Приложение № 2.

Jung'or xonligida hukmronlik qilgan xonlar shajarasi



© Yuri Bregal 2003

28. 17TH CENTURY: THE ASHTARKHANIDS, KHOREZM, THE QAZAQS, AND THE JUNGGHARS